

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOT KAFEDRASI

**BITIRUVCHI KURS TALABASI
YARASHOVA BARCHINOY DONIYOR QIZINING**

**« O`RTA UMUMTA'LIMDA SAID AHMAD IJODINI O`RGANISH
METODIKASI»
mavzusidagi**

*5 120 100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari doktori, professor
AHMEDOVA SH.N**

Buxoro – 2017

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

**BITIRUVCHI KURS TALABASI
YARASHOVA BARCHINOY DONIYOR QIZINING
« O'RTA UMUMTA'LIMDA SAID AHMAD IJODINI O'RGANISH
METHODIKASI»**

mavzusidagi

***5 120 100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari doktori, professor
AHMEDOVA SH.N**

Rasmiy hakam:

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent
BEKOVA N.J**

Buxoro – 2017

«Ma'qullayman» _____
Ilmiy rahbar: f.f.doktori,
professor Sh.N. Ahmedova
 « » _____ **2016-y.**

«Tasdiqlayman» _____
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası mudiri Sh.N.Ahmedova
12.09. 2016-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Yarashova Barchinoyning “O'rta umumta'limda Said Ahmad ijodini o'rganish metodikasi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	oktabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	noyabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	dekabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	yanvar		
	3. II va III bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	fevral		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	mart		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			
BMI ni rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
BMI ni himoya qilish		iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi

Barchinoy Yarashova

Ilmiy rahbar

Shoira Ahmedova

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek tili va adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan**

KO`CHIRMA

29-avgust, 2016-y.

**Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari**

K U N T A R T I B I

***Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda
ilmiy rahbarlarni tayinlash.***

Kafedra qaror qiladi:

1. 4- kurs talabasi Yarashova Barchinoyning bitiruv malakaviy ishi **“O`rta umumta`limda Said Ahmad ijodini o`rganish metodikasi”** mavzusi shaklida tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Yarashova Barchinoyning malakaviy bitiruv ishiga f.f,doktori, professor Shoira Ahmedova ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan**

KO`CHIRMA

Buxoro sh.

5-may, 2017-y.

**Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari**

K U N T A R T I B I

4-kurs talabasi Yarashova Barchinoyning bitiruv malakaviy ishi “O`rta umumta`limda Said Ahmad ijodini o`rganish metodikasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

1. 4-kurs talabasi Yarashova Barchinoyning «O`rta umumta`limda Said Ahmad ijodini o`rganish metodikasi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.
2. Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib, filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.J.Bekova tayinlansin.

Yig`ilish raisi

SH.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

**Filologiya fakulteti 5120100- Filologiya va tillarni o'qitish(o'zbek tili)
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Yarashova Barchinoyning "O'rta umumta'limda
Said Ahmad ijodini o'rganish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy
ishining**

ANNOTATSIYASI

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi o'rta umumta'lim maktablarida Said Ahmad ijodini o'rganish metodikasini taqiq etishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi Said Ahmadning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini ko'rsatish 6-sinfda "Qoplon" va "Sobiq" hikoyalarini o'tish va o'quvchilarni badiiy matn bilan ishlashga o'rgatish usullarini ishlab chiqish, "Ufq" romanini o'tganish yo'llari haqida ma'lumot berish, romandagi obrazlarni tahlil qilishda taqdimotdan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatish kabi vazifalar belgilangan.

Kirish, ikki bob, adabiyotlar ro'yxati va xulosadan iborat ishning birinchi bobida Said Ahmad ijodini 6-sinfda o'rganish muammolari tadqiq etilgan. Ishning ikkinchi bobida adibning "Ufq" romanini 8-sinfda o'tish va o'quvchilarga o'rgatishning yangicha usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Romandagi obrazlarni tahlil qilishda taqdimotdan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

Bitiruvchi malakaviy ishning ilmiy-nazariy ahamiyati shundaki, ish Said Ahmad ijodini umumta'lim maktablarida o'tish va o'rganishda nazariy manba bo'lib xizmat qila oladi.

Xulosa qismida tadqiq etilgan masalalar umumlashtirilgan va ish yakunlangan.

Ilmiy rahbar

Ahmedova SH.N.

Talaba

Yarashova B.D.

БухДУ филология факультети 5120100-Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили) таълим йўналиши битирувчиси Ярашова Барчинойнинг «Урта умумтаълимда Саид Аҳмад ижодини ўрганиш методикаси» мавзусидаги битирув малакавий иши ҳақида илмий раҳбар

ХУЛОСАСИ

Ўзбекистон Қаҳрамони Саид Аҳмад ўзбек адабиётида муҳим из қолдирган халқимизнинг севимли адибларидан биридир. Унинг ижодини янгича талаблар асосида умумтаълим мактабларида ўрганиш муҳим ва долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Негаки, ўзбек адабиётининг А.Қаҳҳор, Ойбек сингари вакиллари ижодини умумтаълим мактабларида ўрганиш бўйича қўлланмалар, кўрсатмалар нашр этилган. Аммо Саид Аҳмад ижодини ўрганиш методикаси бўйича яхлит иш яратилиши ҳозирги таълимнинг зарур эҳтиёжларидан биридир. Шу нуқтаи назардан қараганда, битирувчи талаба Б.Ярашованинг битирув малакавий иши айна муаммони ёритишга бағишлангани билан маълум қимматга эга.

Киришда ишнинг умумий тавсифи берилган. Икки боб, тўрт фаслдан иборат ишнинг биринчи боби 6-синфда Саид Аҳмаднинг “Қоплон” ва “Собиқ” ҳикоясини ўрганиш йўллари, бадиий матн билан ишлаш усуллари ҳақида фикр юритилган.

Адибнинг машҳур романларидан бири “Уфқ”дан берилган парча 8-синфда ўтилади. Иккинчи бобда романни ўрганиш, асардаги образларни ўқувчиларга тақдирот орқали тушунтириш, роман ҳақида назарий тушунча бериш каби масалалар ўрганилган. Адиб асарларини ўрганишда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш йўллари кўрсатилган.

Малакавий битирув ишининг хулосаларидан умумтаълим мактабларида нафақат Саид Аҳмад, балки ўзбек ёзувчилари ижодини бугунги кун талаблари асосида ўрганиш масаласида фойдаланиш мумкин.

Ишда баъзи қусурлар ҳам кўзга ташланади: адиб ижодини ўрганишда интерфаол усулларнинг кўплаб шаклларида фойдаланиш мумкинлигига

эътибор қаратилса, ишнинг қиммати анча ошган бўлур эди. Ишда услубий хатолар ҳам кўзга ташланади. Уларни тузатиш имконияти етарли.

Умуман олганда, битирувчи талаба ўз олдига қўйган вазифаларни имкони қадар ёритиб беришга ҳаракат қилган. Шунинг илоҳотида олиб, Ярашова Барчинойнинг «Урта умумтаълим мактабларида Саид Аҳмад ижодини ўрганиш методикаси» мавзусидаги битирув малакавий ишини яқунланган деб ҳисоблаб, очиқ ҳимояга тавсия этиш мумкин.

Илмий раҳбар

ф.ф. доктори, проф. Ш.Н.Ахмедова

Fakultet ilmiy kengashning 2017- yil may
bayonnomasi bilan tasdiqlangan

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Yarashova Barchinoyning «O`rta umumta'limda Said Ahmad ijodini o`rganish metodikasi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAK

XULOSASI

№	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi-10 ball	talabga qisman javob beradi-7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud-4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan-8 ball	grant loyihasi bo'yicha - 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha-6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan-5b.	yetarli asoslan- magan-3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas - 5 ball	aniq emas - 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi	to'la- 7 ball	qisman - 5 ball	yetarli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi - 8 ball	ilgari olingan - 6 ball	to'la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas - 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referativ xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan - 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o`quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina

		to`la foydalanilgan - 8 ball		foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a`lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to`liq – 8 ball	o`rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMI ni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a`lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMI ga qo`yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo`yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A`zolari: 1. dots. Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof. Ahmedova Sh.N. (a`zo)

3. dots. To`qсанov Q. (a`zo)

4. dots. Bekova N. (a`zo)

9-iyun, 2017-y.

REJA:

KIRISH.Ishning umumiy tavsifi

I BOB.6-SINFDA SAID AHMAD IJODINI O`RGANISH MUAMMOLARI

1.1.Adabiyotni o`rgatishda o`qituvchining o`rni va yozuvchining hayoti,ijodiga oid qaydlarni o`tish usullari

1.2.6-sinfda “Qoplon” hikoyasini o`tish va o`quvchilarni badiiy matn bilan ishlashga o`rgatish usullari

1.3.“Sobiq” hikoyasini YAPT asosida o`rganish muammolari

II BOB. 8-SINFDA ADIB IJODINI O`RGANISH YO`LLARI VA IMKONIYATLARI

2.1.“Ufq” romanini o`rganish yo`llari

2.2. Romandagi obrazlarni tahlil qilishda taqdimotdan foydalanish

Umumiy xulosalar

Adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati .

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, davlatimizning birinchi rahbari Islom Karimov tashabbusi bilan bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirofga sazovar bo'lgan "o'zbek modeli" deb nom olgan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi taraqqiyoti yo'lini belgilab olinishi bilan bir qatorda jamiyatni ma'naviy yuksaltirish hamda shaxsning ma'naviy kamolotiga erishuvi ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish, kasb – hunar o'rgatish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatini o'stirish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni yaratish, ayni paytda ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi davlatning doimiy e'tiboriga olindi.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda qabul qilingan O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi, mazkur dasturning mantiqiy davomi bo'lgan "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" va boshqalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar zahirida farzandlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalash orqali Yurtimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorini qo'yish, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi. Umumta'lim maktablarini isloh qilish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, axborot texnika asrida o'z o'rnini topa oladigan, jahon andozalariga mos raqobatdosh, intellektual salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda davlatimiz bosh islohatchi bo'lib maydonga chiqdi.

Keyingi 25 yil ichida mustaqil mamlakatimizning qaysi bir sohasiga qaramang, yangicha hayot, yangicha turmush tarzi va tinim bilmas jo'shqin fidoiylilikning guvohi bo'lamiz. Bugun esa iqtidorli va iste'dodli, hurfikrli va mustaqillikka intiluvchi yoshlarni voyaga yetkazish ta'lim tizimidagi asosiy masalalardan biridir. Yurtimizda ma'naviyat va ma'rifat, ilmu fanni rivojlantirish, malakali, zabardast kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar fikrimiz isbotidir. Kelajagimiz sog'lom va barkamol, ma'naviy yetuk yoshlar

qo`lida. Shuning uchun ta`lim tizimini isloh qilish, ta`limning samaradorligini oshirishga katta e`tibor qaratilmoqda.

Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarlarida ulug’ ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyaga alohida ahamiyat bilan qaraganlarini ta’kidlagan quyidagi mulohazalari ham shunchalik qimmatlidir: “Bu haqida fikr yuritganda, ulug’ ajdodlarimiz o`z davrida komil inson haqidagi butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o`rinli, deb bilaman, - deya e`tirof etadilar. – Otabobolarimiz ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg’u va tushunchalar bu kodeksning asosiy mazmunini tashkil etadi, desak, o`ylaymanki, xato qilmagan bo`lamiz”. Bu purma’no fikrlarning ulug’ san’atkorlarimiz ijodi bilan bog’liq jihati shundaki, ular o`z asarlarida ajdodlarimizning komil inson haqidagi butun bir axloqiy mezonlar majmuasidan san’atkorlik bilan foydalandi. Ayni holat XX asr o`zbek adabiyoti namoyandalari Abdulla Qodiriy, Cho`lpon, Fitrat, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov singari ijodkorlar merosida ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Milliy qadriyatlarimiz va umumbashariy g’oyalarning ular asarlaridagi badiiy ifodasi barkamol avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois biz ayni masalalarni ta`lim sohasida, umumta`lim o`rta maktablarda yozuvchi ijodini o`rganish, aniqroq qilib aytganda, O`zbekiston Qahramoni Said Ahmad ijodini umumta`lim maktablarida o`rganish muammosi misolida ilmiy tadqiq etishga harakat qildik.

**Bitiruv malakaviy ishining o`rganilish tarixi.** O`zbekiston Qahramoni Said Ahmad hayoti va ijodini o`rganish adib adabiyotga kirib kelgan davrlardayoq boshlangan. Yosh yozuvchi hikoyalarini o`qigan Abdulla Qahhorning unga munosabati, taqrizlari fikrimizga misol bo`la oladi. Said Ahmadning birinchi hikoyalar to`plami “Tortiq” nashr etilishi munosabati bilan A.Qahhor unga taqriz yozadi. Taqriz to`g`ridan-to`g`ri to`plamni tanqid qilishdan boshlanadi. Ammo A.Qahhorning niyati faqat tanqid qilish emas, balki iste`dodni asrashni ham

unutmaydi, shu bois taqriz oxirida shunday yozadi: “ Said Ahmad qo`liga tanbur olibdi, qulog`ini burashiga, parda bosishiga, chertishiga qaraganda tuzuk bir mashq chala oladiganga o`xshaydi, lekin hali mashq qilgani yo`q. “Tortiq”dagi hamma hikoyalar shuni ko`rsatadi. Tanburni qo`lga olib, sozlashdan murod mashq chalish ekanini esdan chiqarmasa bo`lgani!”.

Ko`rinadiki, yozuvchi adabiyot jonkuyari sifatida yosh ijodkor oldiga katta talablar qo`yadi, shu bilan birga zaifroq asarlar yaratgan bo`lsa-da, uning ijodida iste`dod uchqunlarini ko`rib, badiiy ijod yo`lini topishiga ko`maklashadi. A.Qahhorning adabiyotga, yoshlar ijodiga befarq emasligi chorak asrdan keyin yozgan ikkinchi taqrizida yaqqol ko`rinadiki, bu haqda ishimizning ikkinchi bobida alohida to`xtalamiz.

Bundan tashqari O`zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, tanqidchi U.Normatov, adabiyotshunos olim I.G`afurov, adabiyotshunos Sh.Axmedova tadqiqotlarida Said Ahmad ijodi tadqiq etilganini ko`rish mumkin<sup>1</sup>. Shu bilan birga Said Ahmad ijodi, asarlaridan namunalar o`zbek adabiyotida o`ziga xos uslub yaratgan ijodkor sifatida umumta`lim maktalari adabiyot dasturlariga kiritilgan. Adib ijodini ayni shu nuqtai nazaridan mustaqillik yillarida ta`limni isloh qilishga katta e`tibor qaratilayotgan bir davrda o`rganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi deb o`ylaymiz.

Bitiruv malakaviy ishi oldida turgan maqsad va vazifalar. Ishning maqsadi umumta`lim maktablarida Said Ahmad ijodini o`rganish metodikasini tadqiq etishdan iborat. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Said Ahmadning o`zbek adabiyotida tutgan o`rnini ko`rsatish;
- maktabda adabiyot darsliklari va dasturlarida adib ijodiga ajratilgan soatlarni tahlil qilish;

¹ Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. Тошкент. 1999.; Норматов У. Саид Аҳмад. Ижодий портрет. Т. 1978.; Ғафуров И. Прозанинг шоири. Т. 1987.; Аҳмедова Ш. Юмор жилolari. Т. 1998.

- 6-sinfda “Qoplon” hikoyasini o`qish va o`quvchilarni badiiy matn bilan ishlashga o`rgatish usullarini ishlab chiqish;
- Adib ijodini o`rganishda AKTni qo`llash yo`llari haqida ma`lumot berish;
- “Sobiq” hikoyasini YAPT asosida o`rganish muammolarini tadqiq etish;
- “Ufq” romanini o`rganish yo`llari haqida ma`lumot berish;
- Romandagi obrazlarni tahlil qilishda taqdimotdan foydalanish imkoniyatlarini ko`rsatish masalasining yoritilishini tahlillar jarayonida o`rganish va ularning bugungi kunimiz uchun ahamiyatini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ishi o`z ichiga olgan masalalar o`zbek adabiyoti xazinasidan o`rin olgan Said Ahmad asarlarining badiiy qimmatini belgilab chiqish, umumta`lim maktablarida adib ijodining o`rganilishi masalasiga oydinlik kiritish katta ahamiyatga egadir. Bitiruv malakaviy ishining xulosalari umumta`lim maktabalarida nafaqat Said Ahmad, balki o`zbek yozuvchilari ijodini bugungi kun talablari asosida o`rganish masalasining yoritilishini ilmiy tasavvur qilish va sharhlashga yordam beradi.

Ishning jamoatchilik e`tiboridan o`tishi. Ushbu mavzu Buxoro davlat universiteti o`zbek adabiyoti kafedrasida muhokama qilinib tasdiqlangan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi: kirish, ishning umumiy tavsifi, ikki bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati kabi qismlardan iborat bo`lib, sahifada o`z aksini topgan.

I BOB. 6 - SINFDA SAID AHMAD IJODINI O`RGANISH MUAMMOLARI

1.1. Adabiyotni o`rgatishda o`qituvchining o`rni va yozuvchining hayoti, ijodiga oid qaydlarni o`tish

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko`tarilgan barcha tadbir-u amallar respublikamizning aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan, bu eng avvalo, o`qituvchi kasbiga bo`lgan munosabatni tub jihatdan o`zgartirishni, uning ma`naviy - axloqiy va aqliy kamolotini oshirish lozimligini taqozo etadi. Demak, bu fikrlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish, shunday xulosalarga olib keladi:

Birinchidan-ona tili va adabiyot o`qituvchisi o`z kasbini sevmog`i, pedagogik faoliyatga qobiliyati bor, ijodkor, ishbilarmon, bolajon bo`lmog`i;

Ikkinchidan – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi anglaydigan va mukammal egallagan, diniy va dunyoviy bilimlardan ogoh, ma`naviy-axloqiy barkamol inson sifatida obro`- e`tiborga ega bo`lmog`i;

Uchinchidan – iymon-e`tiqodi butun, har qanday oqimlarga va ko`rinishlarga o`zining qat`iy munosabatini bildiradi oladigan, eng muhimi O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida maydonga chiqishiga ishonadigan va boshqalarni ham ishontira oladigan bo`lishi;

To`rtinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi vatanparvarlik g`oyasi bilan sug`orilgan bo`lmog`i va o`z tarbiyachilarini ham ana shu yo`lda fidokorlikka undamog`i;

Beshinchidan – pedagoglik kasbiga doir bilimlarni, ya`ni psixologik, pedagogik mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo`lishi;

Oltinchidan – bolalarni sevishtirish, ular ruhiyatini yaxshi bilishi, shuningdek, ularning yoshi va individual xususiyatini hisobga olgan holda, ular bilan muomalaga kirisha olishi;

Yettinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi erkin va ijodiy fikrlay olishi, talabchan, adolatli bo`lmog`i;

Sakkizinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi odobli, iboli va hayo sohibi bo`lish bilan birga, o`z tarbiyachilarini ham ana shunday sifatlar bilan qurollantirishga harakat qilmog`i;

To`qqizinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi o`z so`ziga va qilayotgan ishiga bolalarni ishontira oladigan, obro`-e`tiborli shaxs bo`lmog`i;

O`ninchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi o`tkir suxandon, mantiqiy fikrlovchi, o`qituvchilarga berilishi lozim bo`lgan ma`lumotni izchil va ketma-ketlik prinsipi asosida yetkazishi;

O`n birinchidan - ona tili va adabiyot o`qituvchisi madaniyatli, estetik didli bo`lishi bilan o`zining tarbiyalanuvchilari uchun ibrat bo`lib qolmog`i lozim;

O`n ikkinchidan – ona tili va adabiyot o`qituvchisi zamon bilan hamnafas tarzda barcha sohada bo`layotgan yangiliklardan boxabar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi kerak.

Agar o`qituvchi ana shunday sifatlarni o`zida mujassam qila olsa, Kadrlar tayyorlash milliy modelida qayd etilgan, qo`yilgan talablarga to`liq javob bera oladi deyish mumkin.

O`qituvchilik kasbini egallash uchun, albatta, tabiiy qobiliyatlar bilan birga, jismoniy, ruhiy xislatlar ham shakllangan bo`lmog`i darkor. Aks holda o`qituvchilik kasbini tanlagan bunday shaxslardan na jamiyatga, na o`zgalarga hech qanday manfaat bo`lmasligi turgan gap.

Pedagogik faoliyatning mazmuni, asosan, yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga tarbiya berish uchun layoqatli, talab doirasida barcha aqliy va axloqiy salohiyatga ega bo`lgan, maxsus tayyorgarlikdan o`tgan shaxslarning alohida faoliyatiga aytiladi. Aniqroq qilib aytganda, o`qituvchilarning mehnat faoliyati komil insonni tarbiyalashga qaratilgan murakkab va ziddiyatli va uzoq davom etadigan jarayondir.

Badiiy adabiyot o`z holicha inson hayotiga bevosita kerak emasday bo`lib tuyulsa-da, amalda insonning odamiylik martabasiga yuksalishi uchun xizmat qiladigan ma`naviy sifatlarni shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Chunki badiiy

adabiyotda inson ruhiyati aks etadi. Binobarin, o'z ahlida ezgu ruhiy sifatlarni qaror topdirmoqchi bo'lgan millat ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishni imkon qadar samarali yo'sinda tashkil qilishga e'tibor qaratadi. Negaki, adabiyot yordamida bilvosita shakllantirilgan ma'naviy sifatlar inson ruhiyatining ezgu bo'lishiga olib keladi. ezgu ma'naviy fazilatlar esa, shaxs takomilining, binobarin, jamiyat taraqqiyotining omilidir.

Ayniqsa, inson omilining salmog'i ortib, bir odamning qo'lidan ulkan yaxshiliklar ham, tengsiz yovuzliklar ham kelishi mumkinligi yoshlarga imkon qadar ko'proq ezgu sifatlarni singdirish kerakligini taqozo etadi. Binobarin, adabiyot o'qitish metodikasi fanining predmeti muhim ijtimoiy salmoq kasb etadi. Badiiy asar o'qishga doimiy ehtiyoj, adabiyotdan xabardorlik, o'qiganlarni tushunish va tahlil qila olish hamda bu xususda istasa og'zaki, istasa yozma shaklda ravon fikr bayon qila bilish millat ahli intellektual rivojidan dalolat bo'ladi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishni samarali yo'lga qo'yish o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan didaktik tadbirgina bo'lmay, yoshlarda ezgu ma'naviy sifatlar tarkib toptirishga yo'naltirilgan umumilliy ahamiyatga ega yumushdir.

Mustaqillik arafasida va undan so'ng yaratilgan adabiyot darsliklarida asosiy e'tibor o'quvchilarga o'zbek adabiyotining naqadar boy va jozibali ekanini anglatishga qaratildi. SHuningdek, bir milliy adabiyot namunalariga "mehnatkashlar adabiyoti", "saroy adabiyoti" va "diniy mistik adabiyot" tarzida qarama-qarshi qo'yib yondashish an'anasi barham topdi. Ko'p asrlik o'zbek adabiyotiga umumiy badiiy boylik va millat ma'naviyatini shakllantirishda baravariga qatnashishi mumkin estetik imkoniyat tarzida yondashildi.

Alohida ta'kidlanishi kerakki, 1999 yilda "Adabiyot o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standarti" hamda "Adabiyotdan umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi" tayyorlanib chop etildi va ularda ilk marta badiiy adabiyotga o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish vositasi tarzida qaraldi. Ya'ni o'zbek pedagogikasida birinchi bor bilim emas, balki o'quvchi shaxsi asosiy qadriyat sanalishi tan olindi.

Adabiy dalillarni o`zlashtirib olish, badiiy matnni yod bilishning o`zi emas, balki badiiy asardagi qahramonlarning tuyg`ulari va muallifning sezimlarini his etish, ularning dardlarini anglash, ularga tuyg`udosh bo`la olish muhim ekanligiga e`tibor qaratildi. Shuningdek, adabiyot bo`yicha yaratilgan darslik va metodik qo`llanmalarda o`quvchilar o`qituvchidan eshitgan yoki berilgan matndan o`qilgan narsalarni qaytadan aytib berishga emas, balki badiiy matn zamiridagi yashirin jihatlarni ilg`ash, badiiy so`z qatidagi jozibani ocha bilishga yo`naltirildilar.

Ta`kidlash kerakki, 1997- yilda barcha o`quv fanlari orasida birinchi bo`lib, 7-sinf "O`zbek adabiyoti" darsligidan foydalanish bo`yicha "O`qituvchi kitobi" chop etildi. Shu nomdagi kitob 2001- yilda 6-sinf "Adabiyot" darsligidan foydalanish bo`yicha, 2003- yilda 8-sinf "Adabiyot" darsligidan foydalanish yo`llari tadqiq etilgan "Adabiy saboqlar 8" kitobi nashr qilindi. 2004- yildan boshlab esa, har bitta adabiyot darsligi o`z metodik qo`llanmasi bilan birgalikda yaratila boshlandi.

Albatta, mustaqillik davrida ham adabiyot o`qitish borasidagi barcha muammolar to`la hal etilgan emas. Bugungi kunda ham bu borada turli darajadagi qarashlar kurashi bormoqda. Lekin muhimi shundaki, egamanlik sharoitida o`zbek adabiyoti o`zbek yoshlarining ma`naviyatini qaror topdirishga yo`naltirila boshlandi. Albatta, vaqtlar o`tishi bilan bu jarayon muayyan takomilga erishib, o`z ijobiy natijalarini beradi.

Ko`rinadiki, adabiyot muallimi o`quvchilarning yosh xususiyatlari va ruhiy taraqqiyotlaridagi o`ziga xosliklarni hisobga olgandagina uning faoliyati samara keltiradi. Ayniqsa, 5-sinf o`quvchisi ertaklar olamiga yaqin ekanligini, uning uchun hayvon va o`simliklarning so`zlashi, shamol, momoqaldiraq, chaqmoq singari tabiat hodisalarining odam yoki boshqa biror jonliq tarzida tasavvur etilishi sog`lom bir hol ekanligini unutmaslik kerak. Bu sinflarning o`quvchilari etik, ruchka, sichqon, dog`, dasturxon xuddi odam kabi harakat qilib, insonday so`zlashi tasvirlangan multfilmlarni ko`rib ulg`aygan. Demak, bu sinflarda o`rgatilishi lozim

boʻlgan adabiy materiallar ham shunga yarasha, ertak va multfilmlarning davomi kabi boʻlgani maʼquldir.

Shundan kelib chiqiladigan boʻlsa, 5-7-sinflarda oʻrgatiladigan badiiy asarlar mustaqillikkacha boʻlgan davrdagiday xronologiya tartibida emas, balki oʻquvchilarda shakllantirilishi koʻzda tutilgan maʼnaviy sifatlarning qandayligidan kelib chiqib joylashtirilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Aytish kerakki, adabiyot boʻyicha amaldagi dasturlarda shu talab imkon darajasida hisobga olingan. Chunonchi, bu sinflarda oʻrgatilishi koʻzda tutilgan badiiy asarlar turli ruknlar asosida joylashtirib, turli davrlarda turli yozuvchilar tomonidan yaratilgan, ammo muayyan ruknga kiritilgan asarlar tarbiyaviy yoʻnalishiga koʻra oʻquvchilarda maʼlum maʼnaviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi koʻzda tutilgan. SHuning uchun ham bir oʻquv yilida oʻrganilishi lozim boʻlgan materiallar **“Hikmat durdonalari”**, **“Rivoyat va ertaklar olamida”**, **“Bolalikning begʻubor olami”**, **“Mumtoz adabiyot boʻstoni”**, **“Vatanni sevmoq iymondandir”** kabi ruknlarga boʻlingan va har bir ruknga unga muvofiq keladigan asarlar kiritilgan.

6-sinf “Adabiyot” dasturiga kiritilgan barcha badiiy materiallar **“Bola – uchqur xayol egasi”**, **“Kechagi kun saboqlari”**, **“Soʻzda hikmat bor”**, **“Rangin tuygʻular”** kabi toʻrt ruknga boʻlingan. 7-sinfda oʻrgatilishi lozim boʻlgan asarlar ham **“Koʻzim qarogʻidasan, Vatan!”**, **“Oʻylarimning cheksiz osmoni”**, **“Moziydan saboqlar”**, **“Yangi davr nafasi”** singari ruknlarga boʻlingan va darslikka kiritilgan barcha matnlar ana shu ruknlar asosida joylashtirilgan. Toʻgʻri, ruknlarni tanlash hamisha ham pedagogik maqsadga muvofiq amalga oshirilgan deb boʻlmaydi. Chunonchi, “Yangi davr nafasi” ruknida A. Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan olingan parcha va Choʻlponning “Goʻzal”, “Binafsha”, “Xalq”, “Koʻngil” sheʼrlari, A. Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi, Mirtemirning “Men tugʻilgan tuproq”, “Onaginam”, “Toshbu”, “Betoblikda” kabi sheʼrlari hamda Paulo Koeloning ilgari surilgan gʻoyalari begona va badiiy ifodasi ham unchalar yuksak boʻlmagan “Alximik” asari berilishi mutlaqo tushunarsiz.

O`z-o`zidan savol tug`iladi: yuqorida sanalgan asarlarning “Yangi davr nafasi”ga nima aloqasi bor va shunday nomlangan rukn o`quvchilar ma`naviyati yoki intellektiga nima berishi mumkin? Bu rukn bolalarda qanday axloqiy sifat shakllantirishi mumkinligi tushunarli emas.

5-7- sinflarda o`rganish uchun adabiy materallarni tanlash va tizimga solishda asar tilining soddaligi, voqeabandligi, syujet rivojining shiddatkorligi va oson esda qolishi kabi jihatalar hisobga olinishi zarur. O`quvchilarning yoshlari ulg`ayib, hayotiy, aqliy va hissiy tajribalari ortib borgani sari ularga beriladigan adabiy materiallar ham murakkablashib boradi.

6-sinfdagi bolalar ham o`ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatga egadirlar. Bu yoshda o`quvchilar mustaqil ko`rinishga, o`ziga xos tavakkal qilish va avantyuristik qarorlar qabul etishga o`ch bo`lishadi. Binobarin, adabiyot o`qitishda ham shu xil sifatlar hisobga olinishi zarur. Shuning uchun ham 6-sinf “Adabiyot” darsligida o`tkir syujetli, avantyuralarga, hamda nozik ruhiy tahlillarga boy “Sariq devni minib”, “Yulduzlar mangu yonadi” singari asarlar kiritilgan. Shuningdek, bu yoshdagi o`smirlarda hissiyot, sezimlar tarbiyasiga ham alohida e`tibor zarurligidan darsliklarga ruhiyat manzaralari aks ettirilgan, bir o`qishda tushunilishi og`ir bo`ladigan asarlar ham kiritilishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

5-7- sinflarda adabiyot o`qitishning vazifasi o`quvchilarda mustahkam axloqiy sifatlari qaror toptirish, ularni badiiy so`z go`zalligidan ta`sirlanadigan, uni qo`llashga intiladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Har bir adabiyot darsligida ana shu vazifalarning bajarilishiga xizmat qiladigan materiallar: 1) adabiy materiallar; 2) didaktik materiallar tarzida ikki qismga bo`lingan holda beriladi.

Adabiy materiallar - badiiy asarlar yoxud ulardan olingan parchalar bo`lib, dasturda ularning talqin yo`sinlari ham ko`rsatiladi.

Didaktik materiallar - adiblarning tarjimai hollari, badiiy matnni o`rganish bo`yicha savol va topshiriqlar, metodik maqolalar, adabiyot nazariyasiga doir

ma'lumotlar, obrazlarga berilgan xarakteristika kabilarni o'z ichiga oladi va adabiy materiallarni qabul etishni osonlashtirishga, badiiy materialni axloqiy-ma'naviy energiyaga aylantirishda o'quvchilarga ko'mak beradi.

5-7-sinflarda adabiyot o'qitishning o'ziga xosligi shundaki, bir tomondan, u boshlang'ich sinfnining davomi, ikkinchi tomondan, yuqori sinflardan adabiyot o'qitish uchun asos. Bu sinflarda asosiy e'tibor adabiy asarni o'qish va shu asnoda o'quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishga qaratiladi.

Agar 5-7-sinflarda adabiyot yaxshi o'qitilmasa, bolalarda shu yoshda badiiy asarga qiziqish uyg'otilmasa, undan keyingi sinflarda o'quvchilarning adabiyotning sevishlari gumon.

10-14 yoshlarda bola o'ta qiziquvchan, kattalarga taqlidchan bo'lishadi, kattalarday bilimdon, aqlli, so'zamol, kuchli ko'rinishni istashadi. Adabiyot o'qituvchisi bolalardagi mana shu xususiyatdan foydalanishi, ularning kuchini badiiy asar o'qishga yo'naltira bilishi, shu yo'lgina katta, kuchli, bilimdon, aqlli bo'lishga olib borishiga ishontira bilishi zarur.

8-9-sinf o'quvchilarida analitik fikrlash kuchliroq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'zlariga tashqaridan qarashga urinishadi. Binobarin, bu sinflardagi o'quvchilarga ruhiy tug'yonlar, nozik hissiyotlar aks etgan asarlarni tavsiya etish mumkin. Ayni vaqtda, o'spirinlar olamni tizimli tushunishga, har bir hayotiy hodisaning boshi va oxiri borligi, ularni sabab-oqibat munosabatlari doirasida anglash lozimligini bilishadi. Shuning uchun ham bu yoshdagi o'quvchilarga o'rgatilishi lozim bo'lgan badiiy asarlar xronologik tarzda taqdim etiladi.

6-sinfda yozuvchilarning tarjimai holi ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunda o'quvchilarning diqqat-e'tibori yozuvchining adabiyot rivojida, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rniga, ijtimoiy yuksalishning asosiy bosqichlariga jalb etiladi. Bu masalalar bo'yicha ma'lumotni o'quvchilar, asosan, darsda, yozuvchining hayoti va ijodi haqida qilinadigan ma'ruzadan oladilar.

Ayrim asarlarni o'qish va o'rganish bilan u haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar.

Adabiyot o'qituvchisi 6-sinf yozuvchining hayoti va ijodi haqida ma'ruza qilishdan oldin o'quvchilarga sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qigan asarlarini eslatadi.

Yozuvchining tarjimai holini o'rganishda uning boshqa yozuvchilar bilan adabiy aloqada bo'lganiga, ular ijodiga bo'lgan munosabatiga ahamiyat beriladi. Chunki har bir yozuvchi faqat o'z zamondoshlari bilan cheklanmasdan, o'zidan oldin yashab ijod etgan yozuvchilarning adabiy merosini o'rganadi, ularning eng yaxshi an'alarini ijodiy davom ettiradi. Shu ma'noda u o'tmish avlodlar ijodning davomchisi, kelajak ijodkorlarning ustoz, yosh avlodning tarbiyachisi hisoblanadi.

O'qituvchi yozuvchining tarjimai holi va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot berishda darslik materiallaridan tashqari, zamondoshlarining u haqida bildirgan fikr va xotiralar hamda hayotiga doir o'zi yozgan asarlaridan foydalanadi. Masalan, Said Ahmadning «Nazm chorrahasida» degan kitobchasi, «Yo`qotganlarim va topganlarim» kitobidan parchalar o`qib berish o`quvchilarda adib ijodiga qiziqish uyg`otadi.

Yozuvchining hayot yo'li va adabiy faoliyatini o'rganishda uning siymosi ibratli tarzda yoritilgan asarlarni eslatish, hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni qisqacha hikoya qilish darsning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Masalan, Said Ahmadning tarjimai holi va adabiy faoliyatini o'rganishda, ayniqsa, adibning o'z iqrorlari, zamondoshlarining xotiralaridan o`qib berish mumkin.

Yozuvchining hayot yo'lini bayon etishda bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyati keng. O'qituvchi Said Ahmad ijodi bo'yicha virtual kutubxonaga yoki virtual muzeyga sayohat qildirishi mumkin. Dars jarayonida o'qituvchi yozuvchining asarlarini namoyish qiladi, ulardan parchalar o'qib beradi. O'z navbatida, o'quvchilar ham yozuvchining

ayrim asarlaridan parchalarni yoddan o'qib mazmunini og'zaki bayon qiladilar. Darsni bu tartibda tashkil etish o'quvchilarda yozuvchi shaxsiga, uning ijodiga nisbatan qiziqish, muhabbat hissini o'stiradi, asosiy mavzu sifatida o'rganiladigan asarni puxta o'zlashtirish uchun zamin yaratadi.

Yangilanish adabiyot fanini o'qitish mazmunini o'zgartirish bilan fanni o'qitish uslubiyatini o'zgartirishni talab etadi. Shu o'rinda bu boradagi yangi texnologiya tushunchasi bilan noan'anaviy dars tushunchasining farqi haqida gapirish o'rinlidir, chunki ko'pchilik o'qituvchilar ularni farqlamay, tenglashtiradilar. Vaholanki, noananaviy dars shunchaki bir usul bo'lib, yangi texnologiya usullar majmuasidir. Bu texnologiyaga an'anaviy dars ham kirishi mumkin, agar bu darsda yangi bilim olishda o'quvchilar ob'yekt emas, sub'yekt sifatida faol bo'lsalar.

Said Ahmad hayoti va ijodi ma'lumot. O'zbek nasrining peshqadam arboblardan biri Said Ahmad (Husanxo'jaev) 1920- yili Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida dunyoga keldi. 1939 -yili o'rta maktabni, 1941 yili esa oliy o'quv yurtini tugatdi. Adabiyot darslari va to'garaklarida ijodga bo'lgan havasi ortib, qo'lga qalam ushlagan, vaqtli matbuot uning ijod dorilfununi bo'lgan.

Said Ahmad dastlab «Mushtum» jurnalida, O'zbekiston radiokomitetida (1942—1943), sobiq «Qizil O'zbekiston» (hozirgi «O'zbekiston ovozi» gazetasida) (1942—1947), «Sharq yulduzi» jurnalida (1948—1950) ishlagan. Uning birinchi hikoyalar to'plami «Tortiq» 1940-yilda nashr etiladi. Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab fel'eton, ocherk va hikoyalar yozgan. Uning «Er yurak» (1942), «Farg'ona hikoyalari» (1948), «Muhabbat» (1949) kabi to'plamlari nashr etilgan. U «Xazina», «Hayqiriq», «Rahmat, azizlarim» kabi hikoyalarida ikkinchi jahon urushining dahshatli oqibatlarini hayajonli tasvirlaydi, urush qahramonlarini ulug'laydi.

Said Ahmadning barcha hikoyalari zamonaviy mavzuda yozilgan. U hikoyalarida tasvirlaydigan har bir voqeadan falsafiy umumlashma chiqarishga, voqealarni lirik ta'sirchanlik bilan ifodalashga, badiiy tasvirlarning xilma-xilligiga

erishishga intiladi. «Cho'l burguti», «O'rik domla», «Lochin», «Odam va bo'ri», «Bo'ston», «To'yboshi» kabi qator asarlari Said Ahmad ijodida ham, o'zbek nasrida ham yangilik bo'lgan.

Adib hikoyalarining bosh qahramoni ichki dunyosi boy zamondoshlarimizdir. Yozuvchi «Tog' afsonasi», «Zumrad», «Muhabbatning tug'ilishi», «Ko'zlaringda o't bor edi», «Poyqadam», «Alla», «Iqbol chiroqlari» asarlarida hayotiy xarakterlar yaratgan.

Said Ahmad o'zining hajviy hikoyalarida taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan yaramas urf-odatlar ustidan kuladi, muhim ma'naviy masalalarni o'rta qo'yadi. Uning «Xanka va Tanka», «Lampa shisha» kabi o'nlab hajviyalari fikrimizning dalilidir.

Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o'zbek radio va televideniesidagi miniatyuralar teatriga asos solgan.

Said Ahmad hikoyalardan asta-sekin yirik polotnolar yaratishga o'tdi. 1949-yilda chop etilgan «Qadrdon dalalar» va «Hukm» (1958) qissalaridan keyin yaratgan «Ufq» (1964) trilogiyasida urushdan oldingi va keyingi davr muammolari haqida bahs yuritadi. «Jimjitlik» (1988) romanida turg'unlik davri illatlari fosh etiladi.

So'nggi yillarda uning «Xandon pista» (1994), «Bir o'pichning bahosi» (1995) kabi hajviy hikoyalar to'plamlari chop etildi. Shuningdek, u Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, M.Shayxzoda, Shuhrat, Mirtemir va S.Zunnunovalar haqida xotiralar yaratgan.

Said Ahmad dramaturg sifatida ham tanilgan. U «Kelinlar qo'zg'oloni», «Kuyov» kabi sahna asarlarining muallifidir. Said Ahmad ham qatag'on davrining ikkinchi to'lqiniga duchor bo'lgan, qamoq azoblarini tortgan ijodkordir. U «aksilsho'raviy millatchilar guruhi a'zosi, zararli g'oyalar targ'ibotchisi» sifatida ayblanib, Qozog'istonning Qaraganda viloyati Jezkazgan lagerida bo'ladi. Uning «Qorako'z majnun» (2002) hikoyalar to'plami bu haqidagi achchiq haqiqatni ro'y-rost ifodalaydi.

Said Ahmadning «Yo`qotganlarim va topganlarim», 3 jildlik «Saylanma»si, «Qorako`z majnun» va «Kiprikdagi tong» to`plamiga kirgan bir qator qissa va hikoyalari uning istiqlol yillarida zavq-shavq bilan ijod etganidan shahodat beradi. Adibning ko`pgina asarlari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan.

U O`zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofotiga sazovor bo`lgan. «Buyuk xizmatlari uchun» va «Do`stlik» ordenlari bilan taqdirlangan. Va, nihoyat, «O`zbekiston Qahramoni» degan yuksak sharaflı unvonga ham egadir.

Said Ahmad 2007- yilda vafot etgan.

Bu ma`lumotlar o`qituvchi tomonidan o`quvchilarga turli usullarni qo`llagan holda yetkaziladi.

1.2. 6-sinfda “Qoplon” hikoyasini o`tish va o`quvchilarni badiiy matn bilan ishlashga o`rgatish usullari

6-sinfda “Qoplon” hikoyasini o`tishda muammoli ta`lim usulidan foydalanilsa, matnning mohiyati o`quvchiga tez va chuqur yetkaziladi.

Muammoli o`qitish ta`limni ilmiy asosda tashkil etishdir. Sinfda yuzaga keltiriladigan muammoli vaziyat vaqtida voqea–hodisalarning o`zaro bog`lanishi, ularning sodir bo`lish sabablari aniqlanadi. Shu jihatdan muammoli ta`lim uzluksiz o`rganish, izlanish xususiyatiga egadir.

Har bir darsda paydo bo`lgan muammoli vaziyat o`quvchilarda asarni bir butun tahlil qilishga istak qo`zg`atadi, tahlil qilishda fikrni faollashtiradi, uzluksiz tahlilni yuzaga keltiradi. Muammoli tahlilda o`qituvchining o`rtaga qo`yadigan savolidan tashqari, asar yuzasidan o`quvchilar ham savollar beradilar. Savollar asosida qilinadigan tahlilning afzalligi shundaki, birinchidan, o`quvchilar tahlilda qiyinchilikni his etadilar va uni yengishga intiladilar, ikkinchidan, tahlil bir maqsad tomon yo`naltirilib, o`quvchilar umuman masalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo`lni topishga harakat qiladilar. Shu zaylda tahlilda bir butunlik ham yuzaga keladi. Masalan, Said Ahmadning «Qoplon» hikoyasini o`rganishda o`qituvchi o`quvchilarning hikoya o`qib , undan olgan taassurotlarini

aniqlagach, taxminan quyidagi savollarni o`rtaga qo`yadi: «Hikoya qahramoni Qurbonboy yashash va tiirikchilik o`tkazishning qanday yo`lini o`zi uchun kasb qilib olgan?». «Qurbonboyning Qoplon haqidagi «Odamning yaxshisini darrov taniydi. Sizga tez o`rganib ketadi» degan ta`rifini uning o`ziga nisbatan qanday shaklda ishlatgan bo`lardingiz?», «Nima deb o`ylaysiz: hikoya qahramoni Qurbonboyga aynan shunday ism tanlangani tasodifmi yoki yozuvchining bundan ko`zlagan boshqa maqsadi bormi? » va boshqalar

Muammoli tahlil asarni o`rganishga bag`ishlangan darslarning eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Bu bosqich asarning asosiy xususiyatini , unda ifodalangan asosiy fikrni o`rganish , aniqlash mashg`ulotidir. Masalan, «Ufq» romanidagi Ikromjon, Tursunboy va Ona obrazlarini o`rganishga bag`ishlangan darslarni , shu bo`yicha o`tkazilgan mashg`ulotlarni muammoli tarzda tashkil etish mumkin.

Muammoli tahlilda qo`llaniladigan usullarning uzviy birligi, muntazamligi asar xususiyatiga, sinf sharoitiga, o`quvchilarning tayyorgarligiga, o`qituvchining ijodiy ish uslubiga, mahoratiga bog`liqdir. Adabiyot o`qitishda ana shu masalalar hisobga olingan holda o`quvchilarni izlanishga, fikrlashga majbur etadigan, ularni faollashtiradigan muammoli savollar tuziladi va o`rtaga qo`yiladi. Masalan: Hikoyadagi “Bir mahal qarasa, ko`chaning narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi” degan tasvir orqali hikoya qahramoni va itning qanday xususiyatlari ifoda etilgan? Yoki “Qurbonboy Tillaevning xotiniga o`zi to`g`risida ijobiy taassurot qoldirish uchun qanday yo`l tutgan bo`lishi mumkin deb o`ylaysiz? Yoki “Sobiq” hikoyasini o`tishda “Hikoya qahramoni qanday odam?”

Shu yo`l bilan sinfda faol vaziyat yuzaga keltiriladi. Biroq muammoli savollarni tuzish bilan muammoli o`qitish hal qilindi, deb bo`lmaydi. Sinf o`quvchilari oldiga qo`yiladigan muammoli savollar adabiyotshunoslik xarakterida bo`lib, asarni bir butun anglash, uning butun murakkab tomonlari va mohiyatini bilib olishni ta`minlashni nazarda tutmog`i lozim. Adabiyotshunoslikka moyil savollar

esa, axloqiy va falsafiy , siyosiy va estetik xususiyatga ega bo'lgan savollardan, masalan, «Qoplon» hikoyasida o'zbek milliy urf – odatlari qanday aks ettirilgan?», «Ufq» romanida o'zbek xalqi hayotining qaysi tomonlari aks ettirilgan? , «Ufq» romanidagi asosiy muammo nimadan iborat?», “Yumorning satiradan qanday farqi bor?” kabi savollardan tashkil topadi.

Muammoli ta'lim o'quvchilarni voqealarni o'zaro aloqada, rivojlanishda anglashga o'rgatadi, ularda tashqi dunyoni anglash, voqealar haqida mustaqil fikr yuritish qobiliyatini o'stiradi.


Hikoya matni bilan ishlash yo'llari. Maktabda badiiy asarni tahlil qilish yo'llari – uni o'rganishning umumiy yo'nalishini, o'qituvchi bajaradigan ishning rejasini belgilab olish yo'lidir. Masalan, “Qoplon” hikoyasi, eng avvalo, sinfda o'qitiladi. Tahlil usullari esa, badiiy asarni tushunish va his etish, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish o'qituvchining har bir mashg'ulotda qo'llaydigan ish uslubidir. Tahlil usullari dars jarayonida adabiy asarni o'rganishda o'qituvchi bilan o'quvchilar bajaradigan ishlarni muayyanlashtiradi. Binobarin, bu usullar darsning barcha bosqichlarida -ifodali o'qish va qayta hikoyalash, matnni izohlash va qiyoslash , yozuvchiga ergashib tahlil qilish, asar obrazlari tartibini aniqlash va asarni muammoli tahlil qilishda faol qo'llanadi. Hikoya matni o'qitilgandan so'ng, uni qayta hikoya qilish usulidan foydalaniladi. Bu usul o'quvchining og'zaki nutqini o'stiribgina qolmay, uning dunyoqarashini, badiiy asar haqidagi tushunchalarini ham o'zgartirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari matnni izohlash usulidan ham foydalanish mumkin. Chunki hikoya sho'ro davrida yozilgani uchun unda bugungi kun o'quvchisi tushunmaydigan ba'zi so'zlar borki, o'quvchi avval ularni izohlab berishi kerak bo'ladi. Masalan, zavgar – garajning mudiri; uchastka – hovli; promkombinat – oziq-ovqat zavodi; raypo –tumandagi ta'minot bo'limi; pensiya – nafaqa, ministrluk – vazirlik; direktor – rahbar, boshliq. Yoki buni slaydda aks ettirib, o'quvchilarga ma'nosini tushuntirib berish mumkin.

Изохталаб сўзлар луғати.

1. завгар – гаражнинг мудири;
2. участка – ҳовли;
3. промкомбинат – озиқ-овқат заводи;
4. райпо – тумандаги таъминот бўлими;
5. пенсия – нафақа,
6. министрлик – вазирлик;
7. директор – раҳбар, бошлиқ.

Adabiy asar matnini o'rganish usullari tushunchasi ta'lim usullari tushunchasiga nisbatan birmuncha chegaralangan bo'ladi. Masalan, badiiy asarning syujeti, kompozitsiyasi bo'yicha jadval tuzish asarni o'rganishda eng qiziqarli ishlardan hisoblanadi. Bu usul yozuvchi tarjimai holini o'rganishda ham, adabiy matnni tahlil qilishda ham, obzor mavzularni o'tishda va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham qo'llanadi. Chunonchi, «Qoplon» hikoyasi bo'yicha tuzilgan jadval o'quvchilar ko'z o'ngida asar muallifi qiyofasini, hayotga bo'lgan munosabatini yaqqol gavdalantirishi bilan birga, muallifning g'oyasi va dunyoqarashini chuqur anglashga yordam beradi.

Masalan, hikoya qahramoni Qurbonboy obrazining xususiyatlarini klaster orqali o'quvchilarning o'zlari topib berishlari mumkin.



Laganbardor, xushomadgo'y, odamning amaliga qarab ish ko'radigan inson.

Ammo **boshliqning xotini nuqtai nazaridan**: durust odam, chaqqongina, yaxshi odam, bechora, bola-chaqali, kambag'alga o'xshaydi.

Tillaev nuqtai nazaridan: it. Matndan: “-Bu itni taniyman,- dedi Tillaev va nariroqda yangi direktorning charm to'nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi”.

Asarni tahlil qilish usullari, ko'pincha, ma'ruza va suhbat yoki o'quvchilarning mustaqil ishi shaklida amalga oshiriladi. Masalan, asarni hayotiy voqealar bilan qiyoslash ma'ruza, suhbat yoki o'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlarning asosiy mavzui bo'lishi mumkin.

O'quvchilarning asarni idrok qilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish uchun zarur bo'lgan usullarni asarlarning xususiyatiga tayangan holda o'qituvchining o'zi tanlaydi. O'qituvchi uchun badiiy asarni o'rganib, eng zarur va qulay usullarni tanlash va uni muvaffaqiyat bilan amalga qo'llash ijodiy ish sanaladi. Binobarin, ruhshunoslik va adabiyot o'qitish usuli hamisha o'qituvchining hamrohi yordamchisi bo'lsa ham, undan hamma vaqt adabiyot o'qitish jarayonida yangi- yangi usullarni o'ylab topishni, doimo ijodiy faoliyat ko'rsatishni taqozo etadi.

O'qitish jarayonida badiiy asarni idrok qilishni kuchaytiruvchi maqbul tahlil usullarini tanlash murakkab masala bo'lib, juda ko'p vaqtlardan buyon o'qituvchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Metodistlardan M.A. Ribnikolva, V. V. Golubkov, N.I.Kudryashev, V.A Nikolskiy o'zbek metodist olimlaridan A. Zunnunov, S. Dolimov, K. Axmedovlar tahlil usullari ustida qunt bilan ishladilar va ma'lum darajada muvaffaq'iyatlarga ham erishdilar.

Maktabda badiiy asarni o'rganishda o'quvchilarning badiiy asarni his etishi va unga bo'lgan munosabati asar muallifi tutgan yo'lga uyg'unlashtirilishi lozim. O'qituvchi maktabda badiiy asarni o'zlashtirib olish jarayonini yaratadi.

Bunda o'quvchilarning bilimni qanday o'zlashtirganliklarini bilish bilan birga, ularga badiiy asarni anglab olish yo'llarini topa bilish, adabiy matnni mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivoj toptirishga ham alohida e'tibor beriladi.

O'qituvchi maktabda o'quvchilarni asarni o'rganishga qiziqtiribgina qolmay, tahlil jarayonida yozuvchining g'oyaviy niyatini bilib olishlariga, asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash ko'nikmalarini o'stirishga, egallagan bilimlarini aql–zakovat, his–hayajon bilan ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berishi lozim.

O'quvchilarga nazariy ma'lumotlar berish yo'llari. Adibning «Qoplon» hikoyasi satirik asarning yaxshi namunasi bo'lib, kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida andisha-mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi, odamlarni amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatishi kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlangan. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o'zini hali tayinlanilmagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko'rsatib, xo'jayinining polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko'rsatib beradi. Tillayev ham, uning xotini ham Qurbonboyning kimligini anglamay, ularga qilib yurgan xizmatini o'zlaricha yaxshilikka yo'yib yuradilar. Bu ish vaqtinchalik vazifa uchun qilinayotgan makkorlik ekanini tushunmaydilar. Shu bois Qurbonboyga ixlosi oshib, Tillayev uni mashina yuvuvchidan garaj mudiri muovini vazifasiga ko'taradi, uyi tomini yopib olishi uchun anchagina shifer, tunuka tushurib beradi. Qurbonboy esa ishi bitguncha girdikapalak bo'lib, har qanday mayda-chuyda oilaviy yumushlarni orlanmay bajarib, yangi boshliq tayinlanishi bilan Tillaev xonadonidan batamom yuz buradi. Xushomadining asosiy vositasi bo'lgan Qoplonni olib ketib, yangi rahbarga ham xuddi avvalgiday alfozda taqdim qiladi. Uning surbetligi shu qadar kuchliki, Qurbonboy Tillayevni yangi boshliqnikida ko'rib qolganida, nomiga bo'lsa-da uyalmaydi ham. Hatto, it

eski xo'jayinini tanib, dumini likillatib erkalangani paytida Qurbonboy yangi rahbaning charm to'nini artib turaveradi.

Hikoya so'ngida Tillayev Qoplonni ko'rib, «Bu itni taniyman» desa-da, achchiq istehzo bilan aytilgan bu so'zlarni Qurbonboyga qarab qo'yib aytadi. Demak, «it» deb Qurbonboyini nazarda tutadi. Yozuvchi bu bilan Qurbonboyilar kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarning jamiyatda, insonlar orasida o'zni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi.

1.3. “Sobiq” hikoyasini YAPT asosida o'rganish muammolari

O'quv jarayoniga AKTni qo'llashning ahamiyati har bir fanning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgani kabi AKTni ham o'quv jarayoniga tadbiiq etishda o'ziga mos tomonlarini belgilab olish darkor. Har bir mavzuni zamonaviy kompyuter imkoniyatidan foydalanib o'tish uchun avvalo, o'quv jarayoniga kerakli elektron darslik, qo'llanma, dars ishlanma, o'quv film va ko'rgazmali materiallar va h.o bo'lishi lozim. Masalan, o'quvchi elektron darslik va internetdan dars jarayonida emas, balki kutubxonada olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda foydalanishi maqsadga muvofiq. Dars jarayonida esa o'tilayotgan mavzuga oid elektron dars ishlanmasidan, elektron o'quv filmidan yoki videofilmdan, didaktik materiallardan foydalanish samaradorlikni ko'proq oshishiga olib keladi. Chunki, o'quvchi ma'ruza shaklida mavzuni eshitishidan ko'ra ko'proq ko'z bilan ko'rib, ba'zi jarayonlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushunchalarni tez qabul qilishi hamda uni amalga joriy etishi yengil kechadi. Bu jarayonda darsda muammo qo'yish usulidan, uni yechimini topishda esa kichik guruhlariga bo'linib masalani hal etish ya'ni, aqliy hujum, muloqot usuli, mantiqiy fikrlash kabi usullarni qo'llash orqali o'quv samaradorligini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

Dars samaradorligini oshirish uchun har bir mavzuga oid elektron ko'rgazmali qurollarning mavjud bo'lishi o'ta muhim omildir. Ko'rgazmali qurol yordamida mavzularni yoritilsa, dars maqsadiga erishish oson kechishi bilan birga vaqtdan

ham ancha tejaladi. Said Ahmadning «Sobiq» nomli ikkinchi hikoyasi achchiq, alamli kulgidan yiroq. Hajviy, sof yumoristik yoʻnalishda. Yozuvchi voqeani asar qahramonining tilidan hikoya qilarkan, jamiyatimizda, halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo boʻlayotgan dabdababozlik nozik yumushlarga chalgʻib, kulgili vaziyatlarga tushib qolishi kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi. Katta maqsadlar yoʻlida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam oʻz oʻrnida boʻlib, oʻz vazifasini sidqidildan bajarishi lozimligi kabi masalalar hajviy yoʻsinda tasvirlangan vaziyatlar orqali anglashiladi.

Shoʻrolar davrining turgʻunlik zamonlarida har narsani mafkuraga bogʻlash odat tusiga kirgan edi. Hikoya qahramoni ham paxta terishda jonbozlik koʻrsatib, hech kutilmaganda dabdababozlikning nishoniga aylanadi. Eng ilgʻor paxtakor deb, asosiy ishini yigʻishtirib, turli kerak nokerak majlis, kengash, yigʻilishlarga borishga majbur boʻladi. Endi dalaga chiqaman deganda, bir kinochilar, bir rassomlar kelib gʻanimat vaqtini behuda oʻtkazadi. Yozuvchi bu xatti-harakatlarning bemaʼnilashib ketganini taʼkidlash uchun kulgining mubolagʻa, lof kabi badiiy tasvir vositalarini qoʻllaydi. Yaʼni, paxtakor qahramon rayon oʻt oʻchirish komandasining pensiyaga chiqayotgan keksa xodimini tabriklashga yuboriladi. Tarvuzni butun yutib, oʻyin koʻrsatadigan polvonni qutlashga chiqadi. Oxiri yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlarni tekshirgani oʻtlanadi. Xullas, yozuvchi kulgili vaziyatni mubolagʻali usuli orqali yanada kuchaytirib, oʻquvchida shodon qahqaha paydo qiladi va bu bilan jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan mayda nuqson, kamchiliklarga eʼtiborni qaratadi.

Har ikki hikoyada ham yozuvchi badiiy tilning xalqona, nozik qochirimli, koʻp maʼnoli xususiyatlaridan keng foydalanadi.

“Sobiq” hikoyasida ham bugungi kun oʻquvchisiga tushunarsiz boʻlgan, oʻsha davr ruhini ifodalaydigan soʻzlar borki, oʻqituvchi ularning izohini, albatta, berishi kerak. Masalan, oʻt oʻchiruvchilar komandasi – oʻt oʻchiruvchilar jamoasi,

drujinachilar – tartib saqlash ishida ko'ngilli bo'lib qo'shilgan yosh bolalar, kaloriya – lotincha issiqlik so'zidan olingan bo'lib, bu o'rinda ya'ni hikoyada somsaning quvvati ma'nosida kelgan; stantsiya – bekat, poezdlarning to'xtash joyi, domotdix – dam oluvchilar uyi yoki sanatoriy, bufet – kafe, do'kon, kolxoz – jamoa, mexanizator – paxta mashinasini haydovchi, samovar bu matnda choyxona ma'nosida kelgan, fizkultura komiteti – jismoniy tarbiya qo'mitasi, vistavka – ko'rgazma, oblast-viloyat, aparat – uskuna va h.k.

Darslikda Said Ahmad hajviyot ustasi bo'lgani uchun, uning uslubida hajv, kulgi bo'rtib turishini inobatga olib, kulgi haqida nazariy tushuncha berilgan. Nazariy tushunchalar o'quvchilarga tushuntirilib beriladi.

Badiiy asarda kulgi haqida tushuncha.

Kulgi turli janrdagi asarlarda uchrashi mumkin bo'lgan hodisa, holat. Biror voqea tarkibida yoki biror obraz tasvirida kulgi, kulgili holatlar bo'lishi mumkin. Kulgi o'z o'mida mahorat bilan, me'yorli qo'llanilsa, har qanday asarga hayotiylik, o'quvchiga qiziquvchanlik, yengil kayfiyat bag'ishlaydi. Bunday asarlarga kitobxon ehtiyoji ham katta bo'ladi. Odatda mutaxassislar badiiy asardagi kulgini ikki yo'nalishga ajratadilar - satira va yumorga.

Satira so'zi yunoncha turli, aralash degan ma'nolarni anglatib, badiiy asarda keng ma'noda kishilardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi.

Yumor ingliz tilidagi namlik, suyuqlik so'zidan olingan bo'lib, u keng ma'noda badiiy adabiyotda yengil kulgi qo'zg'ash, hazil-mutoyiba sifatida qo'llaniladi. Bunda ijodkor ayrim nuqsonlar ustidan kinoya-kesatiqsiz do'stona, xayrixohlik bilan kuladi. Voqea-hodisalarning, jamiyatdagi insonlarning hech bir nuqsonsiz bo'lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hazil-askiya bilan munosabat bildiradi.

Said Ahmadning bu ikki hikoyasi o'sha ikki yo'nalishda yaratilgan asarlardir. Jamiyatdagi turli illatlar, nuqson va kamchiliklar, odamlar o'rtasidagi kulgili munosabatlar, har xil toifa xarakterlar mazkur hikoyalarning bosh mavzusidir.

Said Ahmadning barcha asarlarida kulgi, ayniqsa, yumorning uchrashi adibning tabiatidan kelib chiqadigan, asarlariga xalqona samimiylik baxsh etadigan eng muhim xususiyatlardan biri ekanligini o'quvchilarga o'qituvchi tushuntirib berishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Said Ahmadning hayoti va ijod yo'li haqida so'zlab bering.
2. «Kelinlar qo'zg'oloni» spektakli va kinofilmini ko'rganmisiz? Ko'rgan bo'lsangiz taassurotlaringizni so'zlab bering.
3. «Sobiq» hikoyasi qahramoni qanday odam?
4. Rais obraziga ta'rif bering.
5. Yozuvchi kulgili vaziyatni kuchaytirish uchun qanday tasviriy vositalardan foydalanadi?
6. Yumorning satiradan qanday farqi bor? Misollar bilan tushuntiring.


O'qituvchining ish faoliyatida ya'ni hikoyani o'tishda AKTning ahamiyati
—o'qituvchining AKTdan dars jarayoniga tayyorlanishida, internet imkoniyatidan foydalanib, zarur ma'lumotlarni olishida, turli anjumanlarga tayyorlanishida u katta imkoniyat beradi. Bu o'qituvchini darsga tayyorlanishi uchun ijodiy yondoshishga turtki bo'ladi. O'quv jarayonini ko'rgazmali qilib tashkil etish bilan o'quvchilarni o'z faniga qiziqishini oshirishga erishadi. Bu pirovard natijada, o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakani puxta o'zlashtirishiga sabab bo'ladi.

Darsni ko'rgazmali asosda, ya'ni taqdimot slaydlari yordamida, o'tishi uchun o'qituvchi darsni tashkil etish usulini mukammal bilishi bilan birga kompyuterda mavjud bo'lgan amaliy dasturlarni o'z ish faoliyatiga qo'llash malakasiga ega bo'lishi shart. Masalan, taqdimot slaydlar yaratish uchun Microsoft Office Word bilan birga Power Point dasturini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Masalan, bizning mavzu yuzasidan Said Ahmad ijodi bo'yicha slaydlar taqdimotini berish mumkin. Bunda yozuvchining hayot yo'li, yaratgan asarlari, olgan unvonlari haqida ma'lumot berish kerak. Slaydlarda adibning rasmidan, kitoblari ko'rgazmasidan foydalanish mumkin.



O'zbek nasrining peshqadam arboblaridan biri SAID AHMAD hikoyalarida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qahhor bayonidagi ixchamlik mujassamdir.

U O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti sovrindori. "Buyuk xizmatlari uchun" va "Do'stlik" ordenlari bilan taqdirlangan. "O'zbekiston Qahramoni" degan yuksak sharafl unvonga ham egadir.



Ijodkor tarjima ishlari bilan ham faol shug'ullangan. Jumladan, B. Polevoy, A. Musatov, O. Gonchar kabi yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ayni chog' da adibning ko'pgina hikoyalari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilindi.

Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim", 3 jildlik "Saylanma" si, "Qorako'z majnun" va "Kiprikdagi tong" to'plamiga kirgan bir qator qissa va hikoyalari uning istiqlol yillarida zavq-shavq bilan Ijod etganidan shahodat beradi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda pedagog uchun professional mahorat nafaqat uning faoliyatini osonlashtiradigan dasturiy-texnik vositalarni o'zlashtirish va qo'llash, balki o'qitishi lozim bo'lgan fanga oid intellektual va ijodiy masalalarni hal eta

oladigan dasturlardan foydalanishga o`rgatishdan ham iboratdir. Bu ma`noda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsion texnologiyalariga (AKT) oid kurslar tashkil etib, barcha fan o`qituvchilarini AKTdan o`quv jarayonida samarali foydalanuvchi mutaxassisga aylantirish lozimligini inobatga olib XTV tomonidan 23-martda “Umumta’lim maktablarida faoliyat ko`rsatayotgan o`qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo`yicha malakasini oshirishni tashkil etish to`g`risida”gi 61-sonli, “Umumiy o`rta ta’lim maktablarida faoliyat ko`rsatayotgan o`qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish bo`yicha malakasini oshirishni tashkil etish to`g`risida”gi Xalq ta’limi vazirligining 2012-yil 21-apreldagi 125-sonli buyrug’i qabul qilindi.

2011-yil mart oyida chiqarilgan buyruqni ijrosini ta’minlashga erishish zarurdir. Bu buyruqni ijrosini ta’minlash va qo`yilgan vazifani amalga oshirish uchun informatikadan dars berib kelayotgan malakali yetakchi pedagoglar, mutaxassislar trener sifatida jalb qilinib kompyuter savodxonligiga va har bir ta’lim muassasasi rahbarini, amaliyotchi o`qituvchilarni axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o`quv jarayoniga tatbiq etish bo`yicha kurslar tashkil etib kelinmoqda. Umumta’lim maktablari davlat ta’lim standartlarining takomillashuvi, o`quv dasturlarining optimallashtirish hamda darsliklarning yangi avlodini yaratilishi bilan bir qatorda umumta’lim maktablari uchun elektron axborot-ta’lim resurslari yaratildi.

II BOB.8-SINFDA ADIB IJODINI O`RGANISH YO`LLARI VA IMKONIYATLARI

2.1.“Ufq”romanini o`rganish yo`llari

“UFQ” ROMANI HAQIDA. Ushbu romanda xalqimiz hayotining kichik, biroq mazmun-mohiyati jihatdan juda dolzarb davri aks ettirilgan. Chunki xalqimiz urush arafasidagi, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda mislsiz fidoyilik, qahramonliklar ko'rsatdi. Uzunligi 270 km dan Katta Farg'ona kanalining qo'l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi misli ko'rilmagan jasorat, har qanday jahon rekordini ortda qoldirar edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, kanal qazishda 160 ming kishi qatnashgan, kanal trassasida 17,8 million metr kub tuproq chiqarilgan, shundan faqatgina 1,7 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida qazilgan. Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og'ir mehnati, urushdan keyingi tiklanish davridagi chekkan zahmatlarining har bir kuni jasorat edi.

Bu ulkan ishlarning ortida qo'li qadoq jonli odamlar, ularning murakkabliklar to'la suronli taqdiri, orzu-armonlari bor edi. Said Ahmad xuddi shu fidoyi insonlar hayotini, kechinmalarini qalamga olgan, ular haqida bir emas uchta jozibali, lekin bo'yoqlarga boy, hayajonli kitob bitgan. Ularni jamlab, «Ufq» deb nomlagan. Darhaqiqat, roman uch katta davrni o'z ichiga olgani uchun uni roman-trilogiya deb ataymiz. Asarning dastlabki kitobi «Qirq besh kun», ikkinchi kitobi «Hijron kunlarida», uchinchi kitobi esa «Ufq bo'sag'asida» deb nomlangan. «Qochoq» deb shartli nomlangan parcha romanning «Hijron kunlarida» deb ataluvchi ikkinchi kitobidan olingan. E'tibor bergan bo'lsangiz, ushbu parcha juda og'ir o'qiladi, aniqrog'i, uni o'qish emas, his qilish og'ir. Urush qahramoni Ikromjon Usmonov frontdan bir oyog'idan ajrab, qaytib keladi, ortidan unga berib ulgurilmagan ordeni ham tantanali topshiriladi. Bundan ruhlangan Ikromjon va uning rafiqasi Jannat xola barcha bilan barobar mehnat qiladilar. Biroq ular hayotida falokat yuz beradi - ularning yer-u ko'kka ishonmay o'stirgan yolg'iz o'g'illari Tursunboy urushga ketayotib qochadi, ularning yuzini yerga qaratadi. Eng

yomoni, Tursunboy qochib kelib, ular o'zlashtirayotgan to'qayzor ichkarisiga joylashib olgan. Bu sirni onasi Jannat xolagina biladi. U ikki o't orasida. Bir tomondan, o'g'lining Vatanga xiyonati ich-ichini o'rtasa, ikkinchi tomondan, yolg'iz farzandiga joni achiydi. Qochoq o'g'lini boqish, uni kishilar ko'zidan yashirish bilan ovora bo'lib, tinkasi qurigan mushtipar ona kasallanib qolib vafot etadi. Ikromjon o'g'lining isnodiga chiday olmay yurganda, to'qayda Tursunboyini uchratadi. Ota va bola o'rtasida jiddiy to'qnashuv bo'lib o'tadi. Ikromjon o'g'lini el-yurt oldida uzr so'ratmoqchi, diliga insof solmoqchi bo'ladi. Biroq nobakor o'g'il ko'nmaydi, ota qo'lidan qochib ketadi. Qochoq o'g'il Tursunboy «...ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlari davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg'in bo'lib, olamdan o'tadi».

Asarda Tursunboy qilmishi qoralanadi, hatto otasi ham xiyonatkor o'g'ilni mahv etishga tayyor. Avvalo, ota-onadan ham ayb o'tgan: ular yolg'iz o'g'illarini erka, tantiq qilib o'stirganlar. Bugun erka farzand ularni el orasida sharmisor qilyapti. Biroq bu ayblovlar zamirida urushni qoralash, bu qirg'inbarotni o'ylab chiqarganlarni la'natlash yotibdi. Urush ota-onalarni farzand jog'ida kuydirdi, bolalarni yetim qildi, mamlakatni xarobaga aylantirdi. Barcha baxtsizliklarning sababi - ana shu urush.

So'z garchi Tursunboy taqdiri haqida ketayotgan bo'lsa-da, asarda u yolg'iz personaj hisoblanmaydi. Siz buni yaxshi bilasiz, chunki «Ufq» trilogiyasini to'liq o'qigansiz (qaysingiz o'qimagan bo'lsangiz, maslahatimiz - roman bilan albatta tanishib chiqing). Yozuvchi «Ufq» romanida xalqimizning urush ortidagi mehnati, mashaqqatli hayotini Ikromjon, Jannat xola, To'lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A'zamjon kabi qator qahramonlar taqdiri orqali yorqin tasvirlaydi.

Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asardagi mahoratini shunday ta'riflaydi: «Bu kitobni («Ufq» romanini) kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-

qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost...». Darhaqiqat, ushbu asar «... odamga quvvat beradigan umid. uning boshini «toshdan» qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir». Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo'lmasa kerak.

Maktabda badiiy asar o'quvchining qabul qilish qobiliyati va badiiy tafakkur qonuniyatlariga asoslangan holda o'rganiladi va tahlil qilinadi. Bu, ishning qanchalik samarali bo'lganligi asarni chuqur o'rganish, uni faol his etish orqali o'quvchida paydo bo'lgan izlanishlarda namoyon bo'ladi. Badiiy ijod qonuniyatlariga tayanish zarurati, his – hayajonni kuchaytirish, tafakkurni rivojlantirish, ayniqsa, dramatik asarlarni o'rganishda aniq seziladi. Sahnada ijod etishga mo'ljallangan asar o'quvchi ongini faollashtiradi, his-tuyg'ularini kuchaytiradi. Har bir qahramon o'z nutqi, so'zlash usuli, xatti-harakati bilan o'quvchining ko'z o'ngida yaqqol gavdalanadi, o'quvchilar artist va rejissor faoliyatiga taaluqli bo'lgan badiiy va ijodiy vazifani ham anglab oladilar.

Obrazlilikni, jozibalilikni, izchillikni, hayajonlanishni idrok etish – bularning hammasi yosh kitobxonning tasavvuriga ta'sir etuvchi badiiy tilning go'zalligiga taaluqli bo'lib, bular asarni chuqur his etishlariga yordam beradi. Shu boisdan maktabda badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarning ijodiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Maktab tahlilini badiiy tafakkur qonuniyatlariga yaqinlashtirish zarurati yozuvchining g'oyaviy niyati, uning kitobxon oldiga qo'ygan vazifasidan kelib chiqib hal etiladi.

2.2. Romandagi obrazlarni tahlil qilishda taqdimotdan foydalanish

Nasriy asarlar o'rta maktab dasturida salmoqli o'rinni egallaydi va maktabda bu turga mansub bo'lgan masal, hikoya, qissa, roman janridagi asarlar o'qib o'rganiladi. Nasriy asarlarda hayotiy voqea va odamlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari aks ettiriladi. Shu sababli, maktabda ular bir butunlikda o'rganiladi, asar mavzui, unda ko'tarilgan asosiy masala yoritiladi. Shu yo'l bilan

o'quvchilarda nafosat tuyg'usi shakllantiriladi, ular qahramonlar obrazining xulq-atvori bilan tanishtiriladi, ularga yozuvchining so'z san'atkori ekanligi tushuntiriladi.

Tabiiyki, maktab ta'limida yirik nasriy asarlarni to'liq tahlil qilish imkoniyati yo'q. Shu tufayli, ulardagi asosiy g'oyaviy-badiiy mazmunni anglab olishga yordam beradigan qismlar (boblar) ustida ish olib boriladi. Asar mazmunini anglab olishlari uchun esa, o'quvchilar uni sinfda va uyda o'qib chiqishlari kerak. O'qituvchining bu o'rindagi vazifasi o'quvchilarda badiiy didni o'stirish, ularning yozuvchi fikr-o'ylarini yordam berishdir. Bu vazifa, ayniqsa, hajmi kichik, obrazli xarakteri bir hodisa va to'qnashuvda ochilgan masal, hikoyalarni o'rganishda osonlik bilan hal qilinadi. Qissa va romonlarni o'rganishda esa, oldin yozuvchining ideali ifodalangan asosiy qismlar, ularni o'rganishga mo'ljallangan-mashg'ulot-darslar tartibi aniqlab olinadi. Qissa va romonlarni tarixiy yo'nalishda o'rganiladi. Shu yo'l bilan ularning yaratilish tarixi hozirgi kun uchun ahamiyati yoritiladi.

Maktabda asarlarni o'rganish yo'llarini belgilashda, bolalar psixologiyasiga suyangan holda, o'quvchilarda adabiyotga qiziqish u'yg'otish, asar ustida ishlashga faol ishtirok etish ishtiyoqini qo'zg'atish g'oyat muhimdir. Buning uchun o'quvchilarning asar haqidagi fikrini, asarni tushunish qobiliyatini bilish kerak. Shundagina o'qituvchi o'quvchilarda asarni o'rganishga, o'qishga mazmunini bilishga qiziqish hosil qiladi.

Ma'lumki, badiiy asar mazmuni bilan shakl birliigi, bir butun holda o'rganilishi kerak. Nasriy asar tahlilida ham bu masalaga e'tibor beriladi.

V-VII sinflarda, asosan, asar mazmuni, qahramonlarning xatti-harakati va ichki kechinmalari o'zlashtiriladi, asar kompozitsiyasi, janr xususiyati, yozuvchining voqea va obrazlarga munosabati haqida daslabki tushuncha beriladi. VIII-IX sinflarda asar V-VII sinflardagiga nisbatan chuqur tahlil qilinadi. Tahlil nazariy-adabiy asosda uyushtiriladi.

«Ufq» romanidan berilgan parcha syujetini tahlil qilish. Kitobxon, u kim bo'lishdan qat'iy nazar, avvalo, asar mazmunini bilib oladi.

Syujet, bu–badiiy asar mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hamda qahramonlar xulq-atvori, xatti-harakatini ochishga xizmat qiluvchi hayotiy voqealar tartibi, birligidir. M.Gorkiyning ta'kidlashicha, asar mazmuni odamlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, simpatiya va antipatiyalar, umuman, kishilar o'rtasidagi munosabatlar-u yoki bu obrazning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishdir.

Har bir yozuvchi asarni turlicha ko'rinishda yaratadi, voqealarni turli tartibda bayon etadi, syujetni turli shaklda ifodalaydi. Shu sababli, har bir asar takrorlanmas badiiy xususiyatga ega bo'lib, unda yozuvchi va qahramonning o'zaro munosabati o'ziga xos tarzda ifodalanadi.

Kitobxon asar mazmunini, ifodali va badiiyligini birinchi bobni o'qish bilan oq his etadi. Masalan, Said Ahmadning «Ufq» romanining mazmuni birinchi qismda Tursunboyning qochoqligi bayoni bilan boshlanadi. Uni o'qigan kitobxon roman mazmunini to'liq bilib olishga oshiqadi. Shunga ko'ra, o'qituvchiga nasriy asarni o'rganish (yoki suhbat) bilan boshlash tavsiya etiladi. O'qituvchi asarni o'rganishni shu tartibda boshlash bilan o'quvchilarda navbatdagi tahlilga ishtiyoq, intilish hissini uyg'otadi. Maktabda asarning mazmunini o'zlashtirish butun boblari yoki bir qismi bo'yicha reja tuzishga, hikoyalashga yordam beradi. Reja o'qituvchi yordamida tuziladi.

«Ufq»dagi qahramonlar obrazini o'rganish. Kitobxon asarda hikoya qilingan voqea bilan birga obrazlar xarakterini, taqdirini bilishga ham qiziqadi. Adabiy qahramon badiiy haqiqat bo'lib, usiz asarni ham, yozuvchining mavqeini ham bilib bo'lmaydi. Yozuvchi inson obrazini yaratish bilan uni aniq bir shaxs sifatida tadqiq etadi, badiiy aks ettiradi. Maktabda qahramon obrazini o'rnatishdagi muhim masala obrazda yozuvchining o'z axloqiy-estetik qarashlarini

ham ifodalashi va shu orqali kitobxonga ta'sir ko'rsatishini o'quvchilar ongiga singdirishdan iboratdir.

Darsda qahramon obrazini tahlil qilishda unga xos xislat-fazilatlar ochilgan taqdirdagina o'quvchilar o'z-o'zini va atrofidagi odamlarni tushunadilar, anglaydilar, inson shaxsining kamol topishi, rivojlanishi uchun nimalar qilish, qanday xislatlarni egallash kerakligini bilib oladilar. Ularning bunday tushunchaga ega bo'lishlari uchun darsda qahramon obrazi tahlil qilinayotganda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- obrazning hayotga va hayotda yuz bergan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatiga;
- o'z maqsadini amalga oshirish yo'lida olib borgan kurashiga;
- xulq-atvori va qobiliyatiga;
- kitobxonga ko'rsatgan ta'siriga, o'z davri uchun qanchalik tipikligiga.

Darsda bu masalalarga ahamiyat berish va ular haqida aniq misollar bilan so'zlab berishni talab etish obraz tahlilining mazmunli, muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Qahramon obrazini tahlil qilishda qiyosiy tavsif usulidan ham foydalaniladi. Bu usul o'quvchilarining obraz haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Qahramon obrazini o'rganishda uning tashqi ko'rinishi, xarakterini yoritish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki yozuvchi qahramonning tashqi ko'rinishi, harakati orqali uning jismoniy sifatlarini, harakatlaridagi xarakterli belgilarni ko'rsatadi.

Said Ahmad ijodini o'rganishda o'qitishning zamonaviy metodlari va aqliy hujumdan foydalanish.

Bugungi kunda o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarga murojaat qilish, ulardan foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Texnologiya so'zi

grekchadan tarjima qilinganda san'at, ustalik, malaka ma'nosini anglatadi. Texnologiyani quyidagicha ta'riflash mumkin. Texnologiya-bu sun'iy obyektlarni yaratishga yo'naltirilgan jarayonlarni boshqarishdir. Kerakli jarayonlarni kerakli yo'nalishda borishini ta'minlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanchalik yaxshi tashkil etilganligi texnologiyaning samaradorligini bildiradi. Bu yerda tabiiy jarayonlar nafaqat moddaning tarkibi, tuzilishi va shaklini o'zgartirish maqsadida, balki axborotni qayta ishlash va yangi axborot hosil qilish maqsadida ham boshqariladi. Shuning uchun axborot texnologiyasini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Axborot texnologiyasi - bu axborot ma'lumotni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatidan yangi ko'rinishga keltirish, axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatishning usul va vositalari majmuasidan foydalanish jarayonidir.

Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasining maqsadi insonning talabini qondiradigan yangi mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Axborot texnologiyasining maqsadi esa insonning biror-bir ishni bajarishi uchun zarur bo'lgan, uni tahlil etish va u asosida qaror qabul qilishi kerak bo'lgan yangi axborotni ishlab chiqarishdan iborat. Turli texnologiyalarni qo'llab, bitta moddiy resurslardan turli mahsulotlar olish mumkin. Xuddi shu narsani axborot texnologiyalariga nisbatan ham aytish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlardan biri aqliy hujumning maqsadi o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan ozod qilish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Amerikalik mutaxassis A.G. Osborn tomonidan tavsiya etilgan bu metodda o'quvchilar oldiga ulardan aqliy zo'riqishni talab qiladigan muayyan bir masala qo'yiladi. Shu masala bo'yicha ishlayotgan har bir o'quvchi tomonidan aytilgan fikrni rag'batlantirish va qayd etib borish, ishtirokchilarning erkinligini ta'minlash, bildirilgan fikrlar asoslanishini talab etish, bahs davomida birorta fikrni e'tirozsiz qoldirmaslik talab

qilinadi. O'quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarga e'tiborsizlik bilan qarash, ularni tanqid qilish yoki fikrlaridan kulish taqiqlanadi.

- Aqliy hujum-o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

- Aqliy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. O'ylash jarayonida hech qanday baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar bu jarayondagi g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar moddiy manfaatdorlik yo'liga tushadilar va o'z fikr-g'oyalarini himoya qilishga urg'u beradilar. Yangi fikrlar, yangicha kashfiyotlar xususida o'ylamay qo'yadilar.

2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan xilma-xil mulohazalar yuritishga yo'naltiriladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar o'z fikrlarini qayta qo'llashga bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladilar.

3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatga aylanadi. Tezkor izchillikda katta miqdordagi g'oyalar paydo bo'lganda ularni baholash mumkin. Qatnashchilarning o'z tasavvurlariga erk berishiga imkoniyat yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida yaxshi, betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi.

4. Har bir o'quvchi o'zgalar g'oyasiga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Chunki, fikrdan fikr tug'iladi. Avval taklif etilgan g'oyalarni biriktirish yoki o'zgartirish ko'pincha asos bo'lgan fikrdan kuchliroq, yaxshiroq g'oyalarni keltirib chiqaradi. Aqliy hujum savollari:

Said Ahmad hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering.

1. Adib ustozlari Oybek, G'afur G'uyom, Abdulla Qahhorlardan qanday xislatlarni o'zlashtirgan?
2. Said Ahmad yozuvchilikdan tashqari yana qanday san'at turini egallagan?
3. Said Ahmad turg'unlik yillaridan hikoya qiluvchi qanday asar yaratgan?

4. Said Ahmad ssenariysi asosida yaratilgan qanday badiiy filmlarni bilasiz?
5. «Ufq» romanining yaratilish tarixi haqida nimalar deya olasiz?
6. Roman-trilogiyaning «Qirq besh kun» deb nomlangan birinchi qismi qanday umumxalq qurilishi haqida hikoya qiladi?
7. Tursunboyning erka, xudbin bo‘lib o‘lishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?

8. Tursunboyning ko‘proq nima qiziqtiradi? Asardan olingan parchadan bu savolga javob toping.

Bundan keyin o‘quvchilarni matn bilan ishlashga o‘rgatish quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Ikromjon o‘g‘li Tursunboyning to‘qayzorda uchratganda, ular o‘rtasida shunday savol-javob bo‘lib o‘tadi:

— ***To‘qayga qachon kelding?..***

— ***To‘rt oy bo‘ldi.***

Tursunboy boshini egib yerdan cho‘p olib tishlab o‘tiraverdi.

— ***Onang o‘ldi, - dedi Ikromjon.***

— ***Bilaman. Ko‘mishga olib ketayotganlarida ko‘rib turgan edim.***

Ikromjonning shu javobdan keyingi holatini parchadan topib, mazmunini sharhlab bering.

2. Ikromjonning ruhiy iztiroblarida, musibatlarida ko‘nglini ko‘targan, dardiga malham bo‘lgan mehribon kishilar—To‘lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A‘zamjon haqida so‘zlab bering. Ikromjon va Nizomjon munosabatlari haqida gap ketganda ularga nisbatan quyidagi qaysi maqolni qo‘llasa bo‘ladi (masalan, «Mahatlang — ota-onang», «Tug‘ishgandan tutingan afzal» kabi)?

3. Ikromjonning o'g'li xatti-harakatlariga munosabati ikki xil: bir tomondan unga farzandi sifatida joni achisa, ikkinchii tomondan uni «Xoin! Qochoq! Nomard!» deya la'natlaydi. Buni siz qanday tushunasiz?
4. «Ufq» romanidan olingan parchadan tabiat tasvirining asar qahramonlari ruhiyatiga mos keladigan o'rinlarni toping va adabiyot daftaringizga ko'chirib oling.
5. ***Said Ahmadning «Ufq» romani «...odamga quvvat beradigan umid, uning boshini "toshdan" qiladigan, ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir», deb ta'riflagan adib kim edi?***

"15. Ikromjon, Jannat xola, Nizomjon xarakterlaridagi milliylik nimalarda ko'rinadi?

Dars oxirida o'qituvchining o'quvchilarga murojaati: Aziz o'quvchi, so'z garchi Tursunboy taqdiri haqida ketayotgan bo'lsa-da, asarda u yolg'iz personaj hisoblanmaydi. Siz buni yaxshi bilasiz, chunki «Ufq» trilogiyasini to'liq o'qigansiz (qaysingiz o'qimagan bo'lsangiz, maslahatimiz — roman bilan albatta tanishib chiqing). Yozuvchi «Ufq» romanida xalqimizning urush ortidagi mehnati, mashaqqatli hayotini Ikromjon, Jannat xola, To'lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A'zamjon kabi qator qahramonlar taqdiri orqali yorqin tasvirlaydi. O'zbek xalqining mehnatsevarligi, bag'rikengligi, bolajonligi asarda juda yuqori pardalarda ifodalanadi.

Ustoz adib Abdulla Qahhor yozuvchining ushbu asardagi mahoratini shunday ta'riflaydi: «Bu kitobni («Ufq» romanini) kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan hech qayerda turtinmasdan, diqqati susavmasdan. Ishtahasi bo'g'ilmagan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost...»

Darhaqiqat, ushbu asar «... odamga» quvvat beradigan umid, uning boshini «toshdan» qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir». Ushbu roman uchun bundan-da yuksak baho bo'lmasa kerak.

Xulosa qilib aytganda, 8-sinf o'quvchilari romandan parchani o'qib chiqib, asar qahramonlari hayoti bilan chuqur tanishadilar. Asar qahramonlari haqida esselar yozishlari mumkin. Yoki uyda «Qochoqning fojiasi» mavzusida insho yozib keling deb topshiriq beriladi.

Keyingi darsda o'quvchilarga roman shakllari haqida nazariy ma'lumot bergan paytda ham trilogiya va uning o'quvchi badiiy tafakkuriga ta'siri masalasiga to'xtalib o'tish mumkin.

ROMAN SHAKLLARI. **Roman (franz roman)** — nasriy asar janri. Uning dastlabki lug'aviy ma'nosi roman tillarida (o'rta asrlarda roman tillarida yozilgan har qanday asarni anglatadi) yaratilgan adabiy asardir. Keyinchalik bu atama o'zining lug'aviy ma'nosidan uzoqlashib, keng qamrovli nasriy asar nomini anglata boshlagan. Roman — inson hayotini jamiyat bilan bog'lab, keng tasvirlovchi yirik epik janr hisoblanadi. U boshqa nasriy janrlar — qissa, hikoyalardan o'zida ko'plab personajlarning taqdirini aks ettirishi, katta miqyosdagi voqea-hodisalarni tasvirlashi bilan farq qiladi.

Roman mavzu va shakl jihatdan xilma-xil. Avvalgi darslarimizda bu janrning mavzu jihatdan bir necha xil ekanligi haqida suhbatlashganmiz. (Eslang: tarixiy roman — A. Qodiriy, «O'tkan kunlar»; O. Yoqubov, «Ulug'bek xazinasi»; harbiy roman — Oybek, «Quyosh qoraymas»; Shuhrat, «Shinelli yillar»; zamonaviy roman — P. Qodirov, «Olmos kamar»; O. Yoqubov, «Diyonat»; sarguzasht va fantastik roman - X. To'xtaboyev, «Sariq devni minib»; ijtimoiy-falsafiy roman — A. Muxtor, «Davr mening taqdirimda» kabi.) Ushbu janrni to'liq idrok qilishda uning shakllarini bilish

ham juda muhimdir. Chunki shunday romanlar bitiladiki, romannavis ko'ngliga tukkan, yoritishi kerak bo'lgan voqealar bir kitobga sig'maydi. Muallif uni ikki, uch, to'rt va hatto undan ortiq kitob holida yaratishi mumkin. Shunga ko'ra roman o'zining hajmi va shakliga ko'ra dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. Demak, romanning voqealar ko'lami uning necha kitobdan iborat bo'lishini belgilaydi.

Umumiy mazmuni, g'oyasi, asosiy qahramonlari, voqealar tizimining o'zaro aloqadorligi, bogliqligi bilan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ikki kitobdan iborat ikki mustaqil roman — **roman-dilogiya** deb ataladi va nisbatan katta voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunda asardagi bosh qahramonlar taqdiri tasviri har ikkala kitobda ham davom etadi. Masalan, P. Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni», H. G'ulomning «Mash'al», M. Ismoilovning «Farg'ona tong otguncha», X. To'xtaboyevning «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» romanlarini o'zbek adabiyotida yaratilgan roman-dilogiyalarning namunalari desa bo'ladi.

Roman-trilogiya haqida ham roman-dilogiyaga nisbatan qo'llangan ta'rif mos keladi. Shunday ekan, trilogiya — uch kitobdan iborat roman bo'lib, ijtimoiy hayotning katta bir davrini o'z ichiga oladi. Bunday asar undagi qahramonlar hayotini, davrning juda katta qismini voqealar fonida ko'rsatishga qodir bo'la-di. Masalan, biz o'rgangan Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi uch kitobdan iborat romandir. Romanning birinchi kitobi «Qirq besh kun» deb atalib, unda xalqimizning urushgacha bo'lgan hayoti, uning mehnat jasorati (Katta Farg'ona kanali qurilishini eslang) qalamga olingan. «Hijron kunlarida» deb ataladigan ikkinchi kitob esa birinchi kitob qahramonlarining urushda va front ortidagi qahramonliklari haqida hikoya qiladi. Asarning uchinchi kitobi — «Ufq bo'sag'asida» esa ularning umshdan so'nggi taqdiri tasvirlangan.

Ko'ryapsizki, ushbu roman-trilogiyada juda katta davr qamrab olingan va bu uch mustaqil kitob qahramonlarning g'oyat murakkab, baxtli va mashaqqatli taqdirini batafsil yoritgan.

Jahon adabiyotida L. N. Tolstoy, S. T. Aksakov, Xalqaro Nobel mukofoti laureatlari: ingliz yozuvchisi Jon Golsuorsining «Forsaytlar haqida qo‘shiq», arab yozuvchisi Najib Mahfuzning «Xan al-Xalili», Vasiliy Yanning «Chingizxon», «Botu», «So‘nggi dengizgacha», o‘zbek adibi S.Ahmadning «Ufq» kabi trilogiyalarini uch kitobdan iborat roman-trilogiyalarning mukammal namunasi, desa bo‘ladi.

Roman-tetralogiyalar to‘rt kitobdan iborat roman shakli bo‘lib, jahon romanchilik tajribasida uchraydi. (Masalan, rus adibi V. Ka- tayevning «Qora dengiz to‘lqinlari» tetralogiyasi.)

O‘zbek adabiyotida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning to‘rt kitobdan iborat «Shaytanat» roman i yaratilgan.

To‘rttdan ortiq kitobdan iborat roman shakllarini *romanlar turkumi* deb atash rasm bo‘lgan. Romanchilik tajribasida bunday asarlar turkumiga fransuz adiblari Romen Rollanning o‘n jildlik «Jan Kristof», Roje Marten dyu Gaming sakkiz jildlik «Tibo oilasi» romanlarini misol qilib keltirish mumkin. Ahamiyatlisi shundaki, har ikkala adib ham ushbu asarlari uchun Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlar.

Romanchilik deganda **epopeya** degan tushuncha ham ko‘p ishlatiladi. Uning roman shakllari (dilogiya, trilogiya, tetralogiya, romanlar turkumi)ga faqat bilvosita aloqasi bor, ya’ni unda asaming necha kitobdan iborat bo‘lishi emas, balki qanchalik ko‘p va katta voqea-hodisalarning qamrab olinishi muhim. Masalan, asar qahramonlarining bir necha avlodi taqdiri yoritilgan Oybekning «Navoiy», S. Ayniyning «Qullar» kabi ~~roman-epopeya~~lar shular ” *’ jumlasidandir.

Mavzu yuzasidan quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Romanlarning mavzu va shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Roman-dilogiya, roman-trilogiya, roman-tetralogiyalarni ta’riflang. Ular orasida qanday o‘xshashlik va farq qiluvchi jihatlar mavjud?
3. Romanlar turkumi nima? Bu atama qanday shakldagi asarlarga aytiladi?

4. Roman-epopeya deb qanday asarga aytamiz?

Xulosa qilib aytganda, roman haqidagi nazariy ma`lumot o`quvchining romanchilik taraqqiyoti haqidagi bilimlarini to`ldirishga xizmat qiladi, shu bilan birga Said Ahmad hayoti va ijodi, uning mashhur trilogiyasini yanada chuqurroq o`rganishga yordam beradi.

X U L O S A

O`qituvchilik kasbini egallagan har bir inson, avvalo, o`qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni o`zida mujassam etishi; shuningdek, o`qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo`yiladigan talablarni atroflicha o`zlashtirgan bo`lishi; tanlangan ixtisos yuzasidan kerakli doirada pedagogik mahorat, texnika, takt, ziyraklik, kuzatuvchanlik, bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo`lmog`i juda muhim.

O`qituvchi go`zallik sohibidir. U olijanob sharaflı kasb egalari haqida ne-ne aziz odamlar qo`llariga qalam olib jo`shqin hislarini, eng yaxshi ezgu tilaklarini oq qog`ozlar betiga bitmagan deysiz. Hayot abadiy. Ammo, yosh avlod bilan barhayot. Avlod bor ekan, unga ta`lim va tarbiya beradigan mehri daryo o`qituvchilar ham abadiy barhayot yashayveradi. Hayotning bu sharaflı kasb egalariga bo`lgan ehtiyoji ham abadiydir.

O`qituvchi bamisoli bog`bon. U yoshlik gulshanining bog`boni. Maktab, o`quv yurti – o`quv gulshani, yosh avalod uning bebaho nihollari, ustoz - o`qituvchilar esa bu bog`ning oqil, mirishkor, mehribon bog`bonlaridir. U o`z bog`idagi mevalarning rango-rang va sog`lom bo`lishi uchun kurashadi. Har bir shogirdini baxtiyor ko`rishni orzu qiladi. Daraxtni shirin meva, o`qituvchini esa oqil, barkamol shaxs bezaydi.

Xalqning madaniy saviyasi o`sib borishi bilan umuman san`atning, xususan, adabiyotning shaxs ma`naviyatiga va u orqali jamiyat hayotiga, uning ma`naviypsixologik iqlimiga ta`siri ham orta boradi. SHuning uchun ham jamiyat hayotining burilish davri bo`lgan hozirgi kunlarda adabiyot yosh avlod ma`naviyatini shakllantirishda beqiyos o`rin tutadi. Badiiy adabiyot nafaqat xalq ma`naviy qiyofasini shakllantirishda, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishda, sotsial rivojlantirishni yaxshilashda ham katta o`rin tutadi. CHunki jamiyat taraqqiyoti tezligi unda yashayotgan odamlarning intellektual va ruhiy imkoniyatlariga bog`liqdir. Binobarin, jamiyat a`zolari tafakkuri va

ma'naviyatining qandayligi jamiyat taraqqiyotining sur'atini belgilaydi. Millat yoshlarining ma'naviyati qaror topishida maktabda adabiyot o'qitish muhim o'rin tutadi. Yoshlarning muayyan hayotiy vaziyatlarda qaysi yo'lni tutishi, qanday to'xtamga kelishi, ko'zda tutgan ishlarni qay saviyada bajarishlari, ko'p jihatdan, maktabda badiiy asarlarning qanday o'rgatilishiga bog'liqdir.

Adabiyot o'qituvchisi ham, maktab adabiy ta'limi uchun ashyolar tayyorlashga tutingan mutaxassislar ham har qanday yoshdagi o'quvchilarida o'z fikrini bildirish, mustaqil qarashini bayon etishga kuchli ehtiyoj borligini hisobga olishlari, shundan kelib chiqqan holda adabiy materiallarning tayyor talqinlarini bermay, matn bilan tanishgan har bir o'quvchining o'z qarashi bo'lishiga imkon qoldirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda millat yoshlari har qanday insonning har qanday xatti-harakati haqida o'z to'xtamlariga ega bo'ladiki, bu hol ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishlarida ayricha ahamiyatga egadir.

Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" asarida odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ayni paytda istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Shuningdek, jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga erishish hamda komil insonni tarbiyalash pedagog xodimlarning faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglashimiz lozim deb ta'kidlanadi. O'zbek adabiyoti namunlari, yozuvchilar hayoti va ijodini o'raginshda ham mana shu mezonlarga amal qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Xalq yozuvchisi, xalq sevgan adib Said Ahmad ijodini o'rta umumta'lim maktablarida chuqur va keng o'rganish

o`quvchilarga iste`dodli hajvchi adib haqida batafsil ma`lumot berish yo`llaridan biri hisoblanadi. Chunki Abdulla Qahhor “Ilhom va mahorat samarasi” deb nomlangan taqrizida “Ufq” haqida to`lib-toshib gapiradi, o`ziga, xalqqa manzur bo`lgan asarning fazilatlarini taqrizda ko`rsatib beradi. “Bu – sof hayot, yozuvchining qalbini o`rtagan, ardoqlagan, unga ilhom bergan hayot tasviri, og`ir va shu bilan birga go`zal, mungli va shu bilan birga farahbaxsh, musibatga to`la va shu bilan birga odamga quvvat beradigan umid, uning boshini “toshdan” qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir”. Yozuvchining asarning milliyligi, mavzular olami, Said Ahmadning mahorati haqidagi mulohazalari bugun ham eskirmagan, yarqirab turibdi.

Birinchi taqrizda bo`lgani singari ikkinchi taqrizni ham taqrizchi yuqori pafos bilan yakunlaydi. Said Ahmadning bundan ko`p yillar ilgari “adabiyot tanburini qo`lga olib chertganida, qo`li kelishganini ko`rib, yaxshi sozanda bo`lib, yaxshi-yaxshi mashqlar chalishini” orzu qilgan adib uning muvaffaqiyatidan quvonib shunday yozadi: “SHu orzumiz ushalib kelayotibdi. “Ufq” uning ilhom va mahorat bilan chalgan mashqidir. Sozanda ba`zi pardalarga ortiqroq nolish berib yuborgan bo`lsa, buni hayajon natijasi deyish kerak”¹.

“Ufq” romaniga yuksak baho bergan yozuvchi uni Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga taqdim etadi. Ancha qarshiliklarga qaramay, Said Ahmadning o`zi yozganidek:” baribir oradan o`n to`rt yil o`tib, “Ufq” shu mukofot bilan taqdirlandi. Afsuski, Abdulla aka men laureat unvonini olganimda olamda yo`q edi”. Said Ahmadning xotiralarida ustozning ana shunday ajoyib xislatlari ko`p tilga olinadi.

Umumta`lim maktablarining 6 va 8-sinflarida Said Ahmad ijodini bugungi zamonaviy axborot texnologiyalariga asosan o`rganish, o`qitishning turli vositalaridan foydalanish o`quvchilarni, albatta, adabiyot olamiga yanada qiziqtiradi.

¹ Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. Тошкент. “Шарқ”, 1999. 96-бет.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

I. Ҳуқуқий норматив ҳужжатлар:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) . Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:O'zbekiston. 1997.

II. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари:

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:O'zbekiston. 1997.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 24 июлдаги ПФ – 4456 - сон “Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимни янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил, 20 апрель.

III. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти

И.А.Каримовнинг асарлари:

8. Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. Т.”Ўзбекистон”. 2008. – 173 б.
9. Каримов И. А. Адабиётга эътибор- маънавиятга, келажакка эътибор. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2010. – 39 б.

II. Асосий адабиётлар:

Илмий рисола, дарслик ва ўқув қўлланмалар:

10. Адабий турлар ва жанрлар. 3-жилдлик. 1-жилд. Тошкент. «Фан». 1993.-456 б.
11. Адабиёт назарияси. Иззат Султон. Тошкент. «Ўқитувчи» 1989.- 378 б.

- 12.Адилова С. Ўзбек тилини ўқитишда компьютер технологияларидан фойдаланиш. –Т.: ТДПУ, 2006. - 96 б.
- 13.Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик – мажмуа. С.Ахмедов, Р.Қўчқоров. Ш.Ризаев.11 қисм. Қайта ишланган 3-нашри. Тошкент. «Маънавият». 2013. 3-14 - бетлар.
- 14.Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 8-синф учун дарслик-мажмуа. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2006. 259-280-бетлар.
- 15.Арипов М.М., Мухаммадиев Ж.У. Информатика. Ахборот технологиялари. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Т., 2005.
- 16.Ахмедова Ш. Юмор жилолари. Тошкент. 1998.
- 17.Белинский В. Адабий орзулар. Т. 1987.- 262 б.
- 18.Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Фан, 2007. – 159 б.
- 19.Бекова Н. Интерфаол усуллар. Тошкент. 2012.
20. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ., Адабиёт ўқитиш методикаси, -Т.: Ўқитувчи, 1967.
- 21.Зуннунов А., Ҳотамов Н., Иброҳимов А., Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиш методикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1992.
- 22.Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоқов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. -Т.: Университет, 1994.
- 23.Йўлдошев Б. Адабий жараён: танқидчи услуби ва маҳорат муммолари. Тошкент. «Фан». 2002.- 167 б.
- 24.Мамажонов С. Теранлик. Адабий жараён ва адабий танқид. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987.- 267 б.
- 25.Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т. : Ўзбекистон, 2000, - Б 65.
- 26.Мирвалиев С. Ўзбек романи. Тошкент. 1976.
- 27.Навоий Алишер.Мукаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан, 1998. Т. 14. –

Б 133-134.

28. Назаров Б. Ҳаётийлик –безавол мезон. Тошкент.» Ёш гвардия».1984.-178 б.
29. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қаҳрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. Тошкент. “Тафаккур қаноти”. 2012.- 412 б.
30. Норматов У. Етуклик. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. – 367 б.
31. Норматов У. Саид Аҳмад. Адабий портрет. Т.:1976, - Б.67 .
32. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2007. –351 б.
33. Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. – Тошкент: 1979.Т.14. – 438 б.
34. Саид Аҳмад. Назм чорраҳасида.Т.: 1975.- Б.46.
35. Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. Тошкент. “Шарқ”, 1999. 96-бет.
36. Саид Аҳмад.”Уфқ”. Трилогия. Тошкент. 2001.
37. Солижонов Й. Мен сиздан сабоқ олдим. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 64 б.
38. Содиқ Санжар. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 319-324.
39. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2006.
40. Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. Адабий-танқидий мақолалар. Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. – 378 б.
41. Қаҳҳор Абдулла. Ёшлар билан суҳбат. – Тошкент, 1978. – 44 б.
42. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. – 226 б.
43. Қўшжонов М. Қалб ва қиёфа.Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978. – 221 б.
44. Ғафуров И. Прозанинг шоири. Тошкент. 1981.
45. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – 195 б.
46. Ҳаққулов И. Мушоҳада ёғдуси. Т. 2008.

III. Қўшимча адабиётлар:

Диссертация ва диссертация авторефератлари:

47. Ахмедова Ш. Саид Аҳмаднинг ҳажвий маҳорати. Филол.фанлари номзоди ... дис. автореф. – Тошкент, 1994, – 23 б.

Илмий журналлардаги мақолалар:

48. Қўшжонов М. XX аср менинг тақдиримда // Жаҳон адабиёти. Тошкент, 2001. -№ 1. – Б.13-17.

Луғатлар:

49. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 299 б.
50. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча - ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 375.

IV. Интернет сайтлари:

51. [www. Ziyo/ net](http://www.Ziyo/net)
52. WWW. nuqf. intal. uz

MUNDARIJA

BMI ning rasmiylashtirilishi.....	1-10
Reja.....	11
KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.....	12-15
1 BOB. 6 - SINFDA SAID AHMAD IJODINI O`RGANISH MUAMMOLARI	
1.1. Adabiyotni o`rgatishda o`qituvchining o`rni va yozuvchining hayoti, ijodiga oid qaydlarni o`tish usullari.....	16-26
1.2.6-sinfda “Qoplon” hikoyasini o`tish va o`quvchilarni badiiy matn bilan ishlashga o`rgatish usullari.....	26-32
1.3. “Sobiq” hikoyasini YAPT asosida o`rganish muammolari.....	32-37
11 BOB. 8-SINFDA ADIB IJODINI O`RGANISH YO`LLARI VA IMKONIYATLARI	
2.1. “Ufq” romanini o`rganish yo`llari.....	38-40
2.3. Romandagi obrazlarni tahlil qilishda taqdimotdan foydalanish.....	40-51
Umumiy xulosalar.....	52-55
Adabiyotlar ro`yxati.....	55-58

